


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI
TASHKIL ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRJARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI**



**“AHOLI GEOGRAFIYASI VA DEMOGRAFIYA ASOSLARI”
moduli bo'yicha**

O'QUV – USLUBIY MAJMUA

Toshkent - 2022

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi: Z.N.Tojiyeva – geografiya fanlari doktori, professor

Taqrizchi: M.M.Egamberdiyeva – geografiya fanlari nomzodi, dotsent

O‘quv -uslubiy majmua Bosh ilmiy-metodik markaz Ilmiy metodik Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan

(2020 yil “30” dekabrdagi 5/4-sonli bayonnomasi)

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTU	Ошибка! Закладка не определена.
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI	10
III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	13
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	50
V. GLOSSARIY	55
VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI	60

I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlucksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyatga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy professionalligini oshirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyatga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda, dasturda tinglovchilarining mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulining maqsadi: pedagog kadrlarni innovatsion yondoshuvlar asosida o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg‘or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o‘zlashtirish va amaliyatga joriy etishlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

Modulning vazifalari:

- “Geografiya” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;
- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;
- mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayoniga zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali tatbiq etilishini ta’minlash;
- mutaxassislik fanlar sohasidagi o‘qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalarini o‘zlashtirish;

“Geografiya” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta’minlash.

Modul bo‘yicha tinglovchilarining bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

Modulni o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- aholi geografiyasi va demografiya sohasida yuzaga keladigan muammolar va ularni hal etish strategiyalarini, intellektual mulk va mualliflik huquqini, davlat faoliyatining turli sohalarida aholi bilan bog‘liq jarayonlarni o‘zaro bog‘liqlikda qo‘llash prinsiplari va usullarini;
- davlat boshqaruvi va uning sektorlarida jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi va ayni paytda iste’molchisi sifatida jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan aholi va uning tarkibini tahlil qilish, aholi kartalarini loyihalash va tuzish usullarini bilishi zarur;

Tinglovchi:

“Aholi geografiyasi va demografiya asoslari”

modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida tinglovchilar:

– hududlarda aholi va aholi manzilgohlari soni va dinamikasi, tuzilishi, tarkibi, aholining yosh-jins va milliy, etnik, irqiy va diniy tarkibini tahlil qilish; aholi kartalarini loyihalash va tuzish **ko‘nikmalariga ega bo‘lishi** zarur; **Tinglovchi:**

– aholi takror barpo bo‘lishi va ularning hududiy xususiyatlari, aholi soni va dinamikasi, tarkibi va joylanishi qonuniyatlar haqida bilimlar berish, buning asosida xulosalar chiqarish;

- boshqaruvda aholi demografik rivojlanishi va joylanishi masalalariga ilmiy yondoshish, ta’lim-tarbiya jarayonida ahamiyati va tinglovchilarda ularni aniq ilmiy-nazariy tahlil qilishni vujudga keltirishga erishish;

- aholi geografiyasi va demografiya sohasida erishilgan yutuqlarni va innovatsiyalarni oliy ta’lim tizimiga tadbiq etgan holda, muammolarni hal etish strategiyalarini ishlab chiqish va amaliyotda qo‘llash **malakalariga** ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

□ aholi geografiyasi tadqiqotlarida GAT (GIS) texnologiyalaridan foydalanish;

□ aholi geografiyasi fanining xorij va respublikamizdag muammolari, yechimlari va rivojlanish yo‘nalishlari asosida o‘quv jarayonini tashkil etish;

□ oliy ta’lim geografik fanlarining mazmunini respublikamizdag ta’limning barcha bo‘g‘inlaridagi geografik bilim va ilm bilan uzviyligi va uzluksizligini ta’minalash bo‘yicha tadqiqotlar olib borish, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish **kompetensiyalariga** ega bo‘lishi lozim.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Aholi geografiyasi va demografiya asoslari” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish”, “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish”, “Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish”, “Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish”, “Maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili” modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar tegishli ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari bilan belgilanadi.

Modulning oliv ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar oliv ta'lim geografik fanlarining mazmunini respublikamizdagi ta'limming barcha bo'g'inlaridagi geografik bilim va ilm bilan u兹viyligi va uzlusizligini ta'minlash bo'yicha tadqiqotlar olib borishga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti:

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat			
		Hammasi	Auditoriya o'quv yuklamasi		
			jami	jumladan	
				Nazariy	Amaliy mashg'ulot
1.	Aholi geografiyasi va demografiya fanlarining mazmuni va asosiy bo'limlari. Aholi geografiyasi va demografiya fanining xorijda va O'zbekistonda rivojlanishi.	6	6	4	2
2.	Demografiya va geodemografiY. Aholishunoslikning nazariy asoslari, demografik siyosat va demografik konsepsiylar, demografik qonuniyatlar, demografik jarayonlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta'siri va oqibatlari.	6	6	2	4
3.	Ishlab chiqarishning demografik jihatlari. Demografiya asoslari, siyosiy demografiya, harbiy demografiya, amaliy demografiya, mintaqaviy demografiya, demografik prognoz, iqtisodiy demografiY.	6	6	2	4
	Jami:	18	18	8	10

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-Mavzu: Aholi geografiyasi va demografiya fanlarining mazmuni va asosiy bo‘limlari. Aholi geografiyasi va demografiya fanining xorijda va O‘zbekistonda rivojlanishi. (4 soat)

- 1.1 Aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanining nazariy masalalari.
- 1.2 Aholi soni, dinamikasi, ma’lumotlar manbalari, aholi tarkibi
- 1.3 Aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanining obyekti va predmeti, maqsadi va vazifalari

2-Mavzu: Demografiya va geodemografiY. Aholishunoslikning nazariy asoslari, demografik siyosat va demografik konsepsiylar, demografik qonuniyatlar, demografik jarayonlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta’siri va oqibatlari. (2 soat)

- 2.1 Aholi takror barpo bo‘lishi, demografik o‘tish nazariyasi.
- 2.2 Reproduktiv mayl va umr ko‘rish davomiyligi
- 2.3 Aholi tabiiy harakati: tug‘ilish, o‘lim, tabiiy ko‘payish

3-Mavzu: Ishlab chiqarishning demografik jihatlari. Demografiya asoslari, siyosiy demografiya, harbiy demografiya, amaliy demografiya, mintaqaviy demografiya, demografik prognoz, iqtisodiy demografiY.

(2 soat)

- 3.1 Aholi joylanishi, aholi migratsiyasi, demografik siyosat, oilani rejalshtirish
- 3.2. Aholi manzilgohlari turlari va geografik tarqalishi
- 3.3. Aholi migratsiyasi
- 3.4. Demografik siyosat

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

Amaliy mashg‘ulotlarda tinglovchilar o‘quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o‘quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog‘liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajaradilar.

Amaliy mashg‘ulotlar zamonaviy ta’lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda o‘tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda

o‘quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

1-amaliy mashg‘ulot. Aholi geografiyasini va demografiyaning mazmuni va asosiy bo‘limlari. Aholi geografiyasini va demografiya fanining xorijda va O‘zbekistonda rivojlanishi. (2 soat)

2-amaliy mashg‘ulot. Demografiya va geodemografiY. Aholishunoslikning nazariy asoslari, demografik siyosat va demografik konsepsiylar, demografik qonuniyatlar, demografik jarayonlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta’siri va oqibatlari (4 soat)

3-amaliy mashg‘ulot. Ishlab chiqarishning demografik jihatlari. Demografiya asoslari, siyosiy demografiya, harbiy demografiya, amaliy demografiya, mintaqaviy demografiya, demografik prognoz, iqtisodiy demografiya (4 soat)

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi: - ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);

- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish); bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI

“Keys-stadi” metodi

“Keys-stadi”— inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	✓ yakka tartibdagи audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘sislarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

“Assisment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalgga oshirish tartibi:

“Assisment”lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mayjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘srimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.

 <p>Test Yangilik — bu: A) Xabar B) Ma’lumot C) Dalil D) Ob-havo ma’lumoti</p>	 <p>Qiyosiy tahlil Ekologiya va landshaft, qurilish, sanoat ekologiyani qiyosiy tahlil qiling .</p>
 <p>Tushuncha tahlili Shafarsozlik va ekologik arxitekturani izohlang...</p>	 <p>Amaliy ko‘nikma Ikkilamchi resurslardan foydalanishning ekologik asoslari aniqlang</p>

Venn Diagrammasi metodi

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a’zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

I. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.

1-MAVZU: AHOLI GEOGRAFIYASI VA DEMOGRAFIYA FANLARINING MAZMUNI VA ASOSIY BO'LIMLARI. AHOLI GEOGRAFIYASI VA DEMOGRAFIYA FANINING XORIJDA VA O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISHI (4 SOAT)

REJA:

- 1.1. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanining mazmuni va asosiy bo'lmlari
- 1.2. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanining Xorijda va O'zbekistonda rivojlanishi

Tayanch iboralar: Aholi geografiyasi, demografiya, demografik bilimlar, aholining hududiy taqsimlanishi va migratsiyasi.

1. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanining mazmuni va asosiy bo'lmlari

Aholi deganda ma'lum hududda yashovchi kishilar guruhi tushuniladi. Mazkur guruhlar zaminida jamiyat shakllanadi. Yer kurrasada insoniyat paydo bo'lganidan to hozirga qadar bir qancha davrlar o'tdi. Ana shu davrlarda inson, jamiyat o'z mavjudligini saqlash va rivojlanish uchun muntazam harakat qilib keldi. Ushbu jarayonda aholi tabiiy resurslardan foydalanib, moddiy ehtiyoji uchun zarur vositalarni yaratdi, xo'jalik tizimini barpo etdi, rivojlantirdi. Ana shunga monand yer kurrasida aholi va aholi maskanlarining soni ham ko'payib bordi. Demak jamiyatni rivojlanishida uch asosiy omil – aholi, tabiiy resurslar va xo'jalik o'zaro bog'liq holda alohida ahamiyat kasb etadi va geografiya fanining asosiy obyekti hisoblanadi.

Aholi geografiyasi va demografiya asoslari geografiya fanlari tasnifidagi sotsial qismga kiruvchi o‘z obyekti va predmetiga ega bo‘lgan alohida fandir. Aholi geografiyasining o‘rganish obyekti aholi va aholi soni, dinamikasi, tarkibi va takror barpo bo‘lishidagi geografik farqlar; aholining hududiy taqsimlanishi va joylashuvi; madaniyati, turmush tarzidagi hududiy jixatlari; aholi migratsiyasining tarkibi va yo‘nalishlari; mehnat resurslari va ulardan foydalanishning geografik farqlari; aholi punktlashi va ularning hududiy tizimini o‘rganish tashkil etadi¹. Demak aholi geografiyasi tadqiqotlari uning o‘rganish obyektiga monand, ikki qismga bo‘linadi. Ularning birinchisi dunyo va uning kontinentlari davlatlar va ularning ma’muriy hududiy birliklari bo‘yicha aholini o‘rganish; ikkinchisi esa aholi punktlapi va ularning joylashuvi tizimining hududiy farqlarini tahlil etish. Aholi geografiyasi aholi va aholi punktlapini o‘rganar ekan quyidagi yo‘nalishlar asosida tadqiqotlar olib boradi:

Aholi geografiyasi va demografiya asoslarining eng muhim vazifalaridan biri uni o‘rganishda, shu sohada mutaxassislar tayyorlashda jahon miqyosidagi dasturlarga amal qilish, ilmiy, tarixiy, mantiqiy yondashishdir. Shuningdek, O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va demografik taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan qishloq va shaharlarda xalq xo‘jaligi tarmoqlarini to‘g‘ri, ilmiy joylashtirish; aholiga moddiy va maishiy xizmat ko‘rsatishni takomillashtirish; respublika demografik vaziyatidan kelib chiqqan holda, mehnat resurslaridan mumkin qadar to‘g‘ri va oqilona foydalanish; yangi avlod uchun kerakli ishlab chiqarish muassasalarini to‘g‘ri joylashtirish (bunda Respublikaning har bir hududi geografik va demografik xususiyatlarini nazarda tutmoq lozim); ham aholi geografiyasining muhim vazifalariga kiradi. Shuni alohida, ta’qidlash joizki, XXI asr boshida respublikaning mustaqil iqtisodiy taraqqiyoti davrida aholi migratsiyasida, mehnat resurslari tarkibi, shakllanishi va joylashuvida, oila tarkibida, keskin o‘zgarishlar

¹ E. L. Shuvalov. Geografiya naseleniY. Leningrad 1977, s. 8 – 9; V. A. Kapilov. Geografiya naseleniya M., 1999, s. 7; Demograficheskiy ensiklopedicheskiy slovar. M., 1985, s. 87.

sodir bo‘ldi. Ushbu jarayonlarni ularning sabablari, muammolari kutilayotgan oqibatlarini hududlar bo‘yicha mukammal o‘rganish, aholi ro‘yxati o‘tkazish aholi geografiyasining ham asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Aholi geografiyasi va demografiya asoslari aholi va aholi punktlarini o‘rganar ekan quyidagi yo‘nalishlar asosida tadqiqotlar olib boradi:

1. Aholi soni dinamikasi, ijtimoiy, iqtisodiy, oilaviy va hududuviy tarkibi, takror barpo bo‘lishidagi farqlar va ularning sabablarini o‘rganish.

2. Aholi hududiy tarkibidagi mexnat resurslari va bu resurslardan foydalanishdagi geografik farqlarni o‘rganish. Aholi bu yo‘nalishda ishlab chiqaruvchi kuch sifatida qaraladi va geografiyaning xo‘jalik bilan va boshqa iqtisodiy fanlar bilan o‘zaro aloqasiga tayanadi.

3. Aholining hududiy taqsimlanishi va migraitsiyaisini o‘rganish. Aholi zichligi va undagi farqlarni tahlil qilish, migratsiyasini ayniqsa, aholining qo‘chib kelib joylashishini, mamlakatlar mikyosida aholi joylanishidagi o‘zgarishlar, migratsiya tufayli alohida hududlardagi aholi tarkibi va sonidagi o‘zgarishlarni o‘rganish shular sirasiga kiradi.

4. Aholi punktlapi va ularning hududiy tizimini o‘rganish. Bu yo‘nalish shahar va qishloq aholi punktlapi, ularning rivojlanish va joylanish xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlanadi. Aholi punktlapi joylanishini geografik o‘rganishda aholi geografiyasi va xo‘jalik geografiyasi o‘rtasidagi aloqa juda mustahkam bo‘lishi kerak.

5. Aholining madaniyatni va turmush sharoitidagi geografik farqlar va bu farqlar sabablarini o‘rganish. Mazkur bo‘limda aholi geografiyasi birinchidan sotsiologiya va etnografiya, ikkinchidan aholiga xizmat ko‘rsatish geografiyasi, ayniqsa tibbiyot bilan yaqin hamkorlik qiladi. Xalqlar geografiyasini balkim, ularning madaniyatni va turmush sharoitining milliy xususiyatlari bilan birgalikda berilsa, maqsadga muvofiqdir.

6. Aholi geografiyasining tarixini o‘rganish. Ushbu bo‘limda tarixiy geografiyaning qismi hisoblangan o‘tgan tarixiy davrlarni olib o‘rganadi.

1.2. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanining

Xorijda va O‘zbekistonda rivojlanishi

Biror bir hududda, ma’lum davrdagi aholi tarkibi, o‘tgan davrdagi aholi takror barpo bo‘lishining natijasi, keyingi davrdagi aholi takror barpo bo‘lishining zamini hisoblanadi. Demak, aholi takror barpo bo‘lishi jamiyat taraqqiyoti davomidagi doimiy, murakkab jarayondir.

Taraqqiyot jarayonida aholining shaxsiy iste’moli bilan birga aholining o‘ziga ham takror barpo etiladi, ya’ni kishilar avlodlari tarbiyalanadi, voyaga yetkaziladi. Shuning uchun ham aholini geografik jihatdan o‘rganayotganda uchta narsaga e’tibor berilishi lozim:

Har qanday iqtisodiy geografik muammolarni har qilishda aholiga xos bo‘lgan ushbu xususiyatlarni o‘rganish zarur. Iqtisodiy geografiyaning bir tarmog‘i hisoblangan aholi geografiyasi uning boshqa sanoat geografiyasi, transport geografiyasi, qishloq xo‘jaligi geografiyasi tarmoqlari orasida alohida o‘rin egallaydi. Qolaversa, iqtisodiy geografiya o‘z ichiga aholi geografiyasini kiritar ekan endi u xo‘jalik geografiyasidan “jamiyat geografiyasiga” yoki “sotsial-iqtisodiy geografiyaga” aylandi. Aholi geografiyasining muhim tushunchalariga biri bu aholining hududiy tarkibi, aholining va aholining funksional guruhlarga bo‘linishdir. Aholi hammamizga ma’lum bo‘lgan quyidagi uchta funksional guruhgaga ajratiladi:

Bulardan tashqari aholining migratsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan bir qancha qonuniyatlar ham bor. Yuqorida keltirilgan aholi geografiyasining tadqiqot yo‘nalishlari aholi geografiyasi predmetini aniq shakllantirishga asos bo‘ldi. Aholi geografiyasining predmeti qator geograf olimlar tomonidan belgilangan. S. A. Kovalev, N. Kovalskayalar aholi geografiyasi – aholining tarkibi, dinamikasi va

joylashuvidanagi regional tafovutlarni vujudga keltirgan omillarni, aholi va aholi punktlapining hududiy tizimlarini hamda ularning rivojlanish konuniyatlarini o‘rganadi. Shuningdek, aholi geografiyasi aholining dunyo bo‘ylab va uning alohida mintaqalari, ayrim davlatlari hamda rayonlar bo‘yicha almashuvini ham o‘rganadi¹, deb qaraydilar.

Hozirgi davrga kelib qator geograflar aholining iqtisodiy-ijtimoiy geografiyaning shoxchasi, tarmog‘i deb hisoblamoqdalar. Uning predmeti qilib aholi tarkibi va takror barpo bo‘lishidagi geografik farqlar aholining hududiy tarqalishi va joylashuvi, aholi madaniyati turli tizimdagi geografik farqlar, mehnat resurslarini hududiy guruhlari va ulardan foydalanishdagi geografik farqlar; aholi maskanlari va ularning hududiy tizimi² kabilar ko‘rsatilgan.

Hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimda aholi, aholi punktlapi, aholiga xizmat ko‘rsatish sohalari, sotsial blok tarkibiga kiritilgan xolda iqtisodiy blok elementlari bilan birgalikda umumiyligi tizimni tashkil etadi. Demak, aholi geografiyasini ijtimoiy-iqtisodiy geografiyaning muhim bir tarmog‘i sifatida qarash o‘rinlidir. Har qanday hududiyijtimoiy-iqtisodiy tizimda aholi muhim rol o‘ynaydi. Sababi biron bir hududdagi ishlab chiqarish insonsiz rivojlanmaydi yoki yaratilgan mahsulot uning iste’molisiz o‘z yakunini topmaydi.

O‘zbekiston hududida ham aholi va aholi punktlapi haqida ma’lumotlar qadimiy qo‘lyozmalarda manbalarda mavjuddir.

Qayd etilgan tadqiqotlarda Respublikada shaharlar geografiyasi va shakllanishi omillari, urbanizasiya jarayoni, qishloq joylarida aholi punktlapini shakllanish hususiyatlari, joylashuvi, mehnat resurslari geografiyasi bilan bog‘liq muammolar o‘rganilgan.

¹ S. A. Kovalev, Y. Kovalskaya ...

² YE. L. Shuvalov. Geografiya naseleniya. M., 1977, s. 8 – 9

Bugungi kunda O‘zbekistonda aholi geografiyasi tadqiqot yo‘nalishlari bo‘yicha tumanlar, viloyatlar doirasida mukammal tadqiqotlar olib borilmoqda. Oliy o‘quv yurtlarida geografiya va boshqa aholishunoslik fanlari tizimiga kiruvchi yo‘nalishlarda mutahassislar tayyorlashda aholi geografiyasi va demografiya, bo‘limlariga oid kurslar o‘tkazilmoqda.

Demografiya ham alohida fan sifatida o‘z shakllanish va rivojlanish tarixiga egadir. Mazkur fanning tarixi aholi haqidagi ma’lumotlar ya’ni demografik bilimlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liqdir.

Demografik bilimlar – aholi soni, yosh-jinsiy va ijtimoiy tarkibi, tug‘ilishi, o‘lim hollari, nikoh va ajralish jarayonlari, mionrasiya, hamda oilaning demografik holatiga oid ma’lumotlardan tashkil topadi. Bunday ma’lumotlar jamiyatning, ayniqsa davlatning tashkil topishi bilan bog‘liq bo‘lib, juda qadimiy tarixga egadir. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, aholi ayniqsa erkaklar xo‘jaliklar, oilalar soniga oid demografik ma’lumotlar eramizdan oldingi davrlardan boshlab mavjud ekan. Bularga eramizdan oldingi III – VI asrlardan boshlab Osiyo va Afrika davlatlari, MSR, Mesopotamiya, Hindiston, Hitoy , Yaponiya hamda qadimgi Rim va Gresiyada o‘tkazilgan aholi ro‘yhatlari orqali to‘plangan ma’lumotlar misol bo‘la oladi.

O‘z salomatliklarini saqlash maqsadida mazkur ma’lumotlarni juda ko‘p fuqarolar o‘qirdilar. Angliyalik savdogar olim J.Graunt London tug‘ilish va o‘lim xaqidagi 80 yillik ma’lumotlarni o‘rganib chiqdi va 1662 yili o‘zining 90 betdan iborat «O‘lim haqidagi byulletenlar asosida olib borilgan va mundarijada ilova etilgan tabiiy va siyosiy kuzatishlar natijalari. Ko‘rsatilgan shaharning boshqaruvi, dini, savdosi, havosi, o‘sishi va boshqa o‘zgarishlar hususiyada London fuqarosi Djon Garuntning asari» kitobini yozdi. Kitob juda uzun nomlangan bo‘lib, o‘z oldiga keng qamrovli ijtimoiy hodisalarini maqsad qilib qo‘ygan edi. Kitobda muallif Londonda ulum xolati va o‘limning yosh guruhlari

bo‘yicha atroficha urgangan. Tug‘ilishning shahar va qishloqlar farqlari, aholi migratsiyasi tahlil etilgan. Shuningdek, J.Graunt birinchi bo‘lib, o‘limning matematik jadvalini ishlab chiqqan.

J.Graunt bu kichik hajmli kitobchasi bir emas uch fanning rivojlanishiga zamin yaratdi. Bu fanlar demografiya, statistika va sosiologiya fanlari edi. J.Graunt olib borgan tadqiqotlarning davomchisi sifatida fanda «Siyosiy-arifmetika» yo‘nalishi paydo bo‘ldi, Mazkur fan jamiyatdagi hodisa va jarayonlarni miqdoriy qonuniyatlarani o‘rganardi.

XVIII – XIX acrlarda jamiyat xayotidagi demografik, jarayonlarni o‘rganishga qiziqish kuchaydi. Taniqli iqtisodchilar, tarixchilar, siyosat junoslar, astronomlar shifokorlar, matematiklar tomonidan demografik jarayonlarnn o‘rganishga doir qator tadqiqotlar olib borildi. Nihoyat XIX acrda A.Giyyar yangi vujudga kelgan fanga nom berdi. Uning 1855 yilda Parijda “Inson statistikasi elementlari, yoki qiyosiy demografiya”, deb nomlangan kitobi chop etildi. Bu asarda demografiyaning mustaqil fan sifatida maqsadi yoritilgan. A. Giyyar asarida demografiyaga ko‘p jarayonlarni o‘z ichiga oluvchi insonlarning tabiiy va ijtimoiyy tarixi va ularning umumiy harakati jismoniy, fuqarolik va ahloqiy holatini matematik tarzda o‘rganuvchi fan deb ta’rif berilgan. 1851 – 1922 yillarda yashab ijod etishgan olim Jan Bertilon (A. Giyyarning nabirasi) tomonidan ham demografiyaning fan sifatidagi o‘rganuvchi predmetiga baho beriladi. Olim 1881 yilda yozilgan “Fransiya aholisi harakatining statistikasi” nomli asarida “Demografiya jamoya hayotini o‘rganish bilan shug‘ullandi. Uning maqsadi jamiyatning rivojlanishi, qayta tiklanishi va nihoyat inqirozga uchrab, bahram topishlarning sabablarini o‘rganish.

U halqning, ham jismoniy, ham ahloqiy tuzulishni ko‘rib chiqadi: odamlar qanday va nima uchun nikoh quradilar, qayta miqdorda ko‘payadilar va tadbiq etadi.

Va nihoyat u insonlar necha yoshda qanday vaziyatda qaysi sabablarga ko‘ra, o‘lishlarining sabablarini yoritadi” deb yozadi.

Nazorat savollari

1. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari fani sifatida nimani o‘rganadi?
2. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanining asosiy bo‘limlari nimalarni o‘z ichiga oladi?
3. Aholi geografiyasining o‘rganish obyekti nima?
3. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanining Xorijda va O‘zbekistonda rivojlanishini idrok xaritada izohlang
4. Aholi takror barpo bo‘lishining nechta turi mavjud?

Adabiyotlar:

1. Abdalova Z.T., Tojiyeva Z.N. Iqtisodiy geografiY. O‘quv qo‘llanma / O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, TMI. – T.: «IQTISODMOLIYA», 2013. -212 bet.
2. Abduraxmanov Q.X., va boshqalar. DemografiY. Darslik. - T.: «Fan va texnologiya», 2014. - 368 b.

**2-MAVZU: DEMOGRAFIYA VA GEODEMOGRAFIY.
AHOLISHUNOSLIKNING NAZARIY ASOSLARI, DEMOGRAFIK SIYOSAT
VA DEMOGRAFIK KONSEPSIYALAR, DEMOGRAFIK
QONUNIYATLAR, DEMOGRAFIK JARAYONLARNING IJTIMOIY-
IQTISODIY HAYOTGA TA'SIRI VA OQIBATLARI. (2 SOAT)**

REJA:

- 2.1. Aholi takror barpo bo‘lishi, demografik o‘tish nazariyasi.
- 2.2. Demografik siyosat va demografik konsepsiyalar
- 2.3. Demografik jarayonlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta’siri va oqibatlari

Tayanch iboralar: Demografiya, demografik siyosat, demografik konsepsiyalar, demografik jarayon

2.1. Aholi takror barpo bo‘lishi, demografik o‘tish nazariyasi.

Aholining takror barpo bo‘lishi jamiyat davomiyligini ta’minlovchi asosiy jarayon bo‘lib, inson avlodining muntazam yangilanib turishidir. Inson dunyoga kelib yashaydi, balog‘at yoshiga yetib, farzand ko‘radi, nasl qoldiradi. Bu uzviiy jarayon tufayli jamiyatda avlodlar almashadi, aholi takror va takror barpo bo‘laveradi. Aholining takror barpo bo‘lishi jamiyatning mavjudligini, aholi sonini o‘sib borishini ta’minlovchi jarayondir. Lekin, u bevosita ijtimoiy-iqtisodiy muhit bilan bog‘liq holda sodir bo‘ladi.

Aholining takror barpo bo‘lishida uning tabiiy harakati, ya’ni tug‘ilish va o‘lim asosiy omil hisoblanadi. Tug‘ilishning yuqori bo‘lishi aholi takror barpo

bo‘lishi jarayonini kuchaytiradi va aholi sonini ko‘payib borishiga olib keladi. Avlodlarning almashinuvi, ularning uzoq yashashi esa o‘lim jarayoniga bog‘liqdir. O‘z navbatida inson hayotida o‘limning sodir bo‘lishi qator endogen va ekzogen omillar, hamda jamiyatdagi sotsial muhit bilan bog‘liqdir. Inson hamisha uzoq umr ko‘rishga intiladi. Har bir jamiyatda insonning uzoq umr ko‘rishi, avlodlar salomatligi uchun ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlar yaratiladi. Natijada insonlarning uzoq umr ko‘rishiga: o‘lim hollarini esa sotsial chora tadbirlar bilan boshqarishga erishiladi.

Avlodlarni uzoq-umr ko‘rishi, tashqi muhit bilan uzoq muloqotda bo‘lishi uning demografik mayliga ham ta’sir ko‘rsatadi. Aholi tez sur’at bilan kamayib borishiga ham omil bo‘ladi. Natijada avlodlar o‘rtasida tug‘ilishni, ya’ni nasl qoldirishni boshqarish hollari keng tarqala boshlaydi. Demak, aholining takror barpo bo‘lishi uning tabiiy harakatiga bog‘liq. Aholi tabiiy harakati esa o‘z navbatidagi sotsial muhit ta’sirida o‘zgarib boradi.

Hozirda yer shari aholisi tug‘ilish umumiyligi koeffitsiyenti har ming kishiga 20 promillega, aholi o‘limi 8 promillega, tabiiy ko‘payish 12 promillega (2012 y) teng bo‘lmoqda. XVIII asr oxirlariga qadar yer yuzining barcha mintaqalarida tug‘ilish ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan, XX asrga kelib, aksariyat, rivojlangan davlatlarda industrlashtirish, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, ayollarning ishlab chiqarishda faolligining avj olishi, fan-ta’lim sohasidagi rivojlanishlar, madaniyatning taraqqiy etishi, nikoh qurish yoshining ko‘tarilishi natijasida, tug‘ilish bir muncha pasaydi. XIX asr oxirida Yevropa davlatlarida tug‘ilish yuqori, o‘lim past bo‘lib, aholi takror barpo bo‘lishi intensiv holatda bo‘lgan bo‘lsa, XX asrda huddi shu ahvol Lotin Amerikasi davlatlarida kuzatilgan. Yevropada bu vaqtda tug‘ilishning pasayishi ahamiyatli tus olgan va hozirgacha bu jarayon davom etmoqda.

Tug‘ilish darajasidagi o‘zgarishlarni eng aniq ifodalovchi demografik ko‘rsatkichlardan biri tug‘ilishning yig‘indi koeffitsiyenti bo‘lib, u ma’lum avlodga tegishli har bir ayolning farzand ko‘rish davrida (o‘rtacha 15-49 yosh) tuqqan bolalarning o‘rtacha sonini bildiradi. Agar mazkur koeffitsiyent qaysi bir hududda 4,15dan yuqori bo‘lsa, shu hududda aholi soni tez sur’at bilan ko‘payib boradi, aholi tarkibida bolalar (0-14 yosh) salmog‘i yuqori bo‘lib, qariyalar (65 yosh va undan kattalar) salmog‘i past bo‘ladi. Agar tug‘ilishning yig‘indi koeffitsiyenti 2,15dan kichik bo‘lsa aholi juda sekin o‘sib boradi, aholi tarkibida bolalarga nisbatan qariyalar salmog‘i yuqori bo‘lib, aholining demografik “qarish” jarayoni ro‘y beradi. Bu ko‘rsatkich 2,15dan 4,15 gacha bo‘lsa tug‘ilish darjasini normal hisoblanib, aholi o‘rtacha meyorda ko‘payib boradi.

7-jadval

Aholining takror barpo bo‘lishi ko‘rsatkichlari (har1000 aholiga nisbatan, 2012 yil)

Mintaqalar	Tug‘ilish	o‘lim	Tabiiy ko‘payish	Mexanik ko‘payish
<i>Butun dunyo</i>	20	8	1,2	-
Afrika	36	11	2,5	-1
Amerika	16	7	10	0
Osiyo	18	7	1,1	0
Avstraliya va Okeaniya	18	7	1,1	4
Yevropa	11	11	0,0	2
Rossiya	13	14	-0,1	2
<i>O‘zbekiston</i>	23	5	1,8	-2

Manba: [Population Reference Bureau. 2012. World Population Data Sheet.](#)

1970 – 2005 yillar davomida tug‘ilishning eng tez kamayishi Shimoliy Amerikaga to‘g‘ri keladi (shu davr ichida 1,6 marta kamaygan). Uning asosiy sabablardan biri shahar aholisining o‘sishidir. Masalan, AQSH va Kanadada shahar aholisining 1950 – 1999 yillarda 64 % dan 75 – 79 % gacha o‘sgan. Ba’zi joylarda davlat tomonidan olib borilayotgan tug‘ilishni cheklashga qaratilgan demografik

siyosat ham tug‘ilishning kamayishiga olib keladi. Buni Xorijiy Osiyorning eng aholisi ko‘p davlatlari – Xitoy va Hindiston misolida ham ko‘rish mumkin. Xitoyda oiladagi bolalar sonini cheklash davlat dasturiga kiritilgan. 1970 yillardan boshlab aholi o‘rtasida tug‘ilishni kamaytirish uchun qator tadbirlar qo‘llana boshladi. Natijada, Xitoyda tug‘ilish keskin kamaydi.

BMT ma’lumotlariga qaraganda, 1970 – 1974 yil har bir ayol o‘zining farzand ko‘rish davrida o‘rtacha 4,8 farzand ko‘rgan bo‘lsa, 1986 – 1990 yillarda 2,1 va 1,4 tadan farzand ko‘rishi gan. Xitoy davlati konstitusiyasida er-xotin farzand ko‘rishi rejalashtirishi zarurligi qayd etilgan. Farzandlar tug‘ilishini rejalashtirish bo‘yicha maxsus komitet tashkil etilgan, oilada farzandlar tug‘ilishi uchun hukumatdan rasmiy ruxsat olinishi zarur. Kech nikohga kirish belgilangan, institutda o‘qish davomida turmush qurishga ruxsat berilmaydi. Oilani rejalashtirish shiori “Bir oilaga-bitta bola” siyosati hozirda o‘z natijasini bermoqda. Ammo, bir vaqtlardagi demografik portlash hisobiga tug‘ilganlarning bugungi kunda o‘rta va nafaqa yoshiga yetib kelayotganligi, Xitoy demografik siyosatida yana bir katta muammoni keltirib chiqarmoqda. Oqibatda, aholi o‘rtasida qariyalar va nafaqo‘rlar soni keskin ortishi, tug‘ilayotgan oiladagi bitta bola oltita odamni boqishi kutilmoqda.

Hindistonda ham tug‘ilish davlat tomonidan nazorat qilinadi. Oilada bolalar sonini cheklash milliy davlat dasturi 1951 yili qabul qilingan. Bu masala yuzasidan bir qancha tashkilotlar maxsus tadqiqot olib boradilar. Ular jumlasiga oilani rejalashtirish assotsiatsiyasi, Hindiston Qizil yarim oy jamiyati kabi tashkilotlari kiradi. Oilani rejalashtirish milliy davlat dasturi Hindistonda “Biz ikkitamiz-bizga ikkita” shiori ostida ish olib boradi. Bu dasturga binoan nikohga kirish yoshi ko‘tarilgan. Natijada, tug‘ilish va aholining tabiiy ko‘payish darajalari birmuncha pasaydi. Masalan, 1970 – yillardan buyon har bir ayol o‘z umri davomida ko‘rgan farzandlari soni 5,4 dan 1,7 gacha kamaydi. Ammo shunga qaramasdan, dunyoda

tug‘ilayotgan har 5 ta chaqaloqning 1 tasi Hindistonga to‘g‘ri keladi. Hindistonda tug‘ilishning kamayishiga aholi savodlilik darajasining oshishi ham ta’sir etmoqda. Masalan, 1971 yili Hindiston aholisining 29,4 % savodli bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi davrda 40 % dan yuqori aholi savodlidir.

Aholining takror barpo bo‘lishi nafaqat, tug‘ilishga balki o‘lim jarayoniga ham bog‘liq. O‘lim avlodlar almashinuvidagi asosiy jarayon hisoblanildi. Aholi o‘limi turli sabablar natijasida ro‘y beradi.

Aholining tabiiy o‘sishi hamda kamayishida muhim demografik jarayon bo‘lib ishtirok etadi.

Afrika davlatlarida dunyo bo‘yicha umumiy o‘lim ko‘rsatkichi o‘ta baland. Har 1000 kishiga to‘g‘ri keladigan aholi o‘limi 15-20 %, ba’zi joylarda 25 % ga ham yetadi (Nigerda- 24 %). O‘lim darajasi baland bo‘lgan ikkinchi mintaqaga Yevropa hisoblanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, taraqqiyotiga ko‘ra bir-biridan keskin farq qiluvchi bu ikkala geografik hudud o‘lim hodisasi ko‘pligi bilan bir-biriga o‘xshaydi. Yevropaning deyarli barcha qismlarida o‘lim tug‘ilishga nisbatan yuqori. O‘limning umumiy ko‘rsatkichi va mamlakat iqtisodiy rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik har doim ham o‘zini oqlamaydi. Jumladan, Yevropa iqtisodiy jihatdan baquvvat bo‘lishiga qaramasdan, aholi o‘rtasida o‘lim ko‘pligi bilan ajralib turadi. Buni ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoit bilan emas, balki aholi yosh tarkibidagi vaziyat bilan baholash maqsadga muvofiq. Yevropa aholisining umumiy o‘lim ko‘rsatkichida bolalar va o‘rtalik yoshdagilar o‘rtasida o‘lim kam uchraydi, keksa yoshdagilarda, erkaklarda, aksincha, juda baland. Bundan tashqari, Yevropa aholisi tarkibida ekzogen omillar tufayli sodir bo‘ladigan o‘lim hodisasi ko‘p uchraydi. Tug‘ilish darajasining pastligi, o‘limning tug‘ilishdan ko‘pligi aholining tabiiy kamayishini keltirib chiqardi. Bugungi Yevropa demografik vaziyatida aynan shunday holat, tufayli qisqargan aholi takror barpo bo‘lishi sodir bo‘lmoqda, ya’ni aholi tabiiy ravishda kamaymoqda.

Statistik ma'lumotlar tahlilidan, aholining o'rtacha umr ko'rish ko'rsatkichi dunyoda erkaklarda 68 yosh, ayollarda 72 yoshga tengligi, ya'ni eng baland aholi o'rtacha umr ko'rishi rivojlangan davlatlarga to'g'ri keladi (erkaklar- 80, ayollar- 86 yosh). O'rtacha umr ko'rish yoshi 80 va undan baland bo'lgani, aksariyat, ayollarda kuzatilmogda. Ayollar o'rtasida 80 va undan katta umr ko'rish yoshiga ega bo'lgan davlatlarga Yaponiya (86 yil), Gonkong (86), Finlyandiya (85), Shvetsiya (84), Norvegiya (83), Gretsya (82), Italiya (84), Fransiya (85), Kanada (83 yil) kiradi. Aynan mana shu sanab o'tilgan davlatlarda dunyo miqyosida eng kichik go'daklar o'limi kuzatiladi. Keyingi 10 – 15 yil ichida dunyoning deyarli hamma qismida tug'ilishning kamayib borishi, o'rtacha umr ko'rish yoshining ortishiga sabab bo'ldi.

Uzoq umr ko'rish yoshiga erishish har bir mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bog'liq bo'lishi bilan birga sog'liqni-saqlash, aholi sog'lom hayot tarzini tashkil etishdagi erishgan yutuqlari bilan belgilanadi. Jumladan, Yaponiya (aholisi o'rtacha umr ko'rish yoshi 83 yil, ayollarda 86 yil); Shvetsiya va Shveysariyada (o'rtacha ko'rsatkich 80-82 yosh); Niderlandiya, Norvegiya, Fransiya, Avstraliya (82 yosh); SSHA, Kanada, Avstriya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Isroil, Finlyandiya (80—82 yosh); O'rtacha umr ko'rish yoshi o'rtacha bo'lgan davlatlar (60—79 yosh) — Xitoy, Ruminiya, Rossiya, Polsha, Hindiston, Meksika, Braziliya, ko'pgina MDH davlatlari; O'rtacha umr ko'rish yoshi past bo'lgan davlatlar (55 yoshdan past) Afriki, janubiy, janubiy –sharqiy Osiyo davlatlari kiradi:

BMT tomonidan 1992 yili Rio-de-Janeyroda o'tkazilgan xalqaro konferensiyada demografik muammoni hal etish har bir davlatning barqaror rivojlanish dasturining asosiy qismi bo'lishi kerakligi ta'kidlangan. Har bir davlat ichki imkoniyatidan kelib chiqib, o'sib borayotgan aholisini boqishi, hayoti uchun zarur shart-sharoit yaratishda o'zining demografik siyosatini, maqsadi va

vazifalarini belgilab olishi zarur. Aholi ko‘payishida nafaqa, uning tabiiy harakati, balki mexanik harakati, ya’ni migratsiyasi ham muhim rol o‘ynaydi.

2.2. Demografik siyosat va demografik konsepsiylar

Insoniyatning paydo bo‘lishi va jamiyatning rivojlanishi davomida aholi takror barpo bo‘lishini boshqarish tizimida katta o‘zgarishlar kuzatilgan.

Demografik siyosat deganda, hozirgi davr hamda uzoq muddatli istiqbol uchun aholining takror barpo bo‘lishi va dina-mikasi sohasida muayyan birsifat va miqdorga erishishni nazarda tutuvchi birlashgan vositalar va fikrlar birligining davlat miqyosida qabul qilingan tizimi tushuniladi.

Demografik siyosatni o‘tkazish quyidagi shart-sharoitlarga rioya qilishni talab etadi:

- siyosatning maqsadini tavsiflovchi vazifa va vaqtini belgilovchi konsepsiyaning mavjudligi;
- qabul qilingan konsepsiya doirasida siyosatning barcha tadbirlarini moliyalashtirishga sarflanishi zarur bo‘lgan resurslar;
- o‘tkazilayotgan siyosatning asosiy strategik fikrlarini qoilovchi o‘zaro mutanosib fikrlar.

Aytish joizki, demografik siyosatni o‘tkazish uchun iqtisodiy, ma’muriy-huquqiy va ijtimoiy-psixologik uslubJirdan foyda-laniadi.

Iqtisodiy uslub asosan tug‘ilish darajasi ahoii ko‘payishini ta’minlay olmagan hollarda qo‘llaniadi. Bu uslubda davlat tomonidan homilador ayollarga farzand ko‘rgandan keyin va farzandi 2-3 yoshga to‘lnunga qadar maxsus nafaqalar ajratiladi hamda turli imtiyozlar beriladi.

Ma’muriy-huquqiy uslubda aholining takror barpo bo‘lishiga qonun hujjatlari orqali ta’sir ko‘rsatiladi. Masalan, bu uslub* abortlarni qonun yo‘h bilan

ta'qiqlash, nikohga kirish yoshini ko'tarish, aholining migrations harakatini cheklash yoki rivojlantirish, er-xotin ajrashganda ona va bola huquqlarini himoya qilish, homilador ayolni ishga qabul qilishda yoki bo'shatishda ularning huquqlarini himovasi va boshqa tadbirlar orqali amalga oshiriladi.

Demografik siyosat o'tkazishning **ijtimoiy-psixologik uslubi** aholini «demografik tarbiyalash» deb ham ataladi. Aholini demografik tarbiyalash orqali yosh avlodning oilaga, oilada kutilayotgan farzandlar sonja bo'lgan munosabatini davlat ijiimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga, ahoii salomatligiga mos ravishda shakllantiriladi. Bunda oila asosiy tarbiya o'chog'i hisoblanadi. Shuning uchun ham ota-onalarning «demografik savodxonligi»ga katta e'tibor beriladi. Demografik tarbiyaning yana bir muhim o'chog'i omma-viy axborot vositalari orqali aholining demografik mayliga ta'sir o'tkazish hisoblanadi.

2.3. Demografik jarayonlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta'siri va oqibatlari

Demografik siyosatning istalgan strategiyasi doirasida davlat o'zining ijtimoiyjarayonlarini boshqarish huquqini amalga oshiradi. Shu Man bir vaqtda, davlat tomonidan olib borilayotgan demografik siyosatning maqsad va vazifalari oqimida borayotgan aholi qismining xarajatlarini qoplash ham davlat zimmasida bo'ladi. Bunday siyosat turli ijtimoiy-demografik guruhlar, hududiy va etnik jamoalarning hayotiy qiziqishlari va qadriyatlariga mos ravishda maksimal differentsiallashgan bo'lishi lozim. Shundagina demografik dasturning u yoki bu jihatiga qiziquvchilaming soni kamayib, dasturlarni amalga oshirish xarajatlarining samaradorligi oshishi mumkin.

Shu bilan bir qatorda, siyosatchilar tug'ilish darajasining kamayishi bilan bog'liq bo'lgan demografik rivojlanishning salbiy tendentsiyalariga qaramay,

demografik siyosatni olib borishda to‘g‘ri chiziqli qarorlarni qabul qilish, ya’ni konkret tor doiradagi demografik maqsadlarni ilgari surishni xohlaydi. Bunda ijtimoiy rivojlanishning global dasturlarida demografik yoki an’anaviy integratsiya siyosatiga ahamiyat beriladi. Demografik dasturlarga nisbatan bunday ehtiyyotkorona munosabatalarni shakllantiruvchi asosiy sabablar quyidagilardan iborat:

- ong va xulqning individuallashuvi davlatning bu yo‘nalishdagi har qanday harakatlarini ommalashtirmaydi;
- demografik investitsiyalar tez va muhim ijobiy natijalarga erishish imkonini bermasligi sababli davlat arboblarining siyosiy imidjini oshirmaydi;
- demografik dasturlar xarajatlami talab etadi. Masalan, bir rnarta erishilgan tug‘ilish va o‘lim darajasini bir maromda ushlab turish uchun ketadigan xarajatlar vaqt o‘tishi bilan rasmiy ravishda oshirilib borishi lozim. Buning hisobiga demografik dasturlar, umuman jamiyatga foyda keltirmaydigandek bo‘lib ko‘rinadi. Bundan tashqari, aholi taklif qilingan va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga tezda moslashib, keyinchalik ularga e’tibor qilmay qo‘yadi.

Shunday qilib, demografik siyosat aholi siyosatining uzviy qismi hisoblanib, u orqali kutilgan, istalgan aholining takror barpo bo‘lish turiga erishish mumkin.

Aholi takror barpo bo‘lishining 2 turi kuzatilayotgan qator davlatlarda aholining haddan oshib ko‘payib borishi, ya’ni “demografik portlash” jarayonini oldini olish muammosi mavjuddir. Ushbu muammoni bartaraf etishda tug‘ilishni nazorat etish uslubidan foydalaniladi. Davlat siyosati oilani demografik nuqtai nazaridan rejalashtirishga qaratiladi. Bunday siyosat Xitoy, Xindiston va qator rivojlanayotgan davlatlarda olib borilmoqda.

Angliyalik iqtisodchi Semyuel Leng “agar hamma yetarli, qulay, yaxshi sharoitda yashaganda edi, hozir dunyo odamsiz qolgan bo‘lur edi” deydi. Bundan aholining moddiy ahvoli, ma’naviy turmush darajasi yuksalib borar ekan, o‘z

navbatida inson psixologik nuqta-i-nazardan ko‘p farzand ko‘rishni istamaydi, degan fikr tug‘iladi.

B.S. Urlanis “Moddiy jihatdan yaxshi ta’milangan oilalarning farzandlari kam sonlidir” deb iqtisodiy omilning demografik omilga ko‘rsatayotgan ta’sirini ifodalab beradi. Shuningdek, u moddiy omil bilan ma’naviy omilning avlodlar almashinuviga hamisha bir xil yo‘nalishda ta’sir etmasligini ham aytib o’tadi. Aholi takror barpo bo‘lishi, ushbu omillar ta’sirida bir-biridan farq qiluvchi tiplari vujudga keladi.

Birinchi tip-bu guruhga kiruvchi davlatlarda yashovchi aholi o‘rtasida tug‘ilish va o‘limning yuqori darajasi va bunga mos ravishda, aholining kam miqdorda ko‘payishi xos bo‘lib, hozirda ushbu tipga kiradigan davlatlar yer sharida juda kam miqdorda uchraydi.

Ikkinci tip - davlatlariga tug‘ilish miqdori yuqori, o‘lim ko‘rsatkichi tibbiyotdagi erishilgan yutuqlar evaziga keskin kamayib boradi. Aholi yosh tarkibi progressiv, keksa va qariyalar salmog‘i kam sonli, bolalar, yoshlar ko‘pchilikni tashkil etgan holda, aholi takror barpo bo‘lishi ijobjiy baholanadi, “demografik portlash” kuzatiladi. Aholi takror barpo bo‘lishining kengaygan ushbu tipiga Afrikaning barcha davlatlari, Xorijiy Osiyo, Janubiy Amerikaning qator davlatlari, Avstraliya va Okeaniya, O‘rta Osiyo davlatlarini kiritish mumkin.

Uchinchi tip-bu tipdagagi davlatlarda aholi o‘limining kam miqdori ushlanib turgan holda, tug‘ilish darajasi qisqarib boradi. Aholi soni haddan tashqari ko‘payib yoki kamayib ketmaydi. Aholining ma’lum bir miqdorda o‘sishi kuzatiladi. Ushbu tipdagagi davlatlar aholi takror barpo bo‘lishining oddiy tipiga kiruvchi davlatlar, deb ataladi.

To‘rtinchchi tip- davlatlari aholisi o‘z-o‘zini qayta tiklamaydi. O‘lib ketayotganlar mutloq miqdori hayotga yangi kelayotganlar miqdoridan ortiq bo‘ladi. Mazkur guruh davlatlarida “depopulyatsiya” ro‘y beradi, qisqargan aholi

takror barpo bo‘lishiga olib keladi. Bularga Yevropa, Boltiqbo‘yi davlatlari, Shimoliy Amerikadagi ma’lum bir davlatlarni, Yaponiya, Gruziya, Armaniston, Rossiyanı kiritish mumkin.

Nazorat savollari:

1. Aholi takror barpo bo‘lishi ko‘rsatkichlari nimalardan iborat?
2. Demografik siyosat ntima?
3. Demografik konsepsiylar mazmun va uning mohiyatini tushuntirib bering
4. Demografik jarayonlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta’siri qanday ?

Adabiyotlar:

1. Abdalova Z.T., Tojiyeva Z.N. Iqtisodiy geografiY. O‘quv qo‘llanma / O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, TMI. – T.: «IQTISODMOLIYA», 2013. -212 bet.
2. Abduraxmanov Q.X., va boshqalar. DemografiY. Darslik. - T.: «Fan va texnologiya», 2014. - 368 b.

3-Mavzu: Ishlab chiqarishning demografik jihatlari. Demografiya asoslari, siyosiy demografiya, harbiy demografiya, amaliy demografiya,

PEЖA:

- 3.1 Ishlab chiqarishning demografik jihatlari
- 3.2 Harbiy demografiya, amaliy demografiya
- 3.3. Demografik prognoz, iqtisodiy demografiya

Tayanch iboralar: Harbiy demografiya, amaliy demografiya, Demografik prognoz, iqtisodiy demografiya, demografik statistika

3.1 Ishlab chiqarishning demografik jihatlari

Bugungi kunda mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanishida inson omili, uning intelektual salohiyati eng birinchi omil sifatida qaralmoqda. So‘nggi paytlarda bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda ilmiy adabiyotlarda demografiya deb nomlanadigan amaliy demografik tadqiqotlar yo‘nalishi jadal rivojlanmoqda. Bu unchalik yaxshi bo‘lmagan so‘zlar ostida, qoida tariqasida, ular biznes va marketingda demografik usullar, tadqiqot natijalari va aholi statistikasidan foydalanishni tushunadilar. Demografiya aholini tovarlar va

xizmatlarning potentsial iste'molchilari sifatida o'rganadi va demografik o'zgarishlar iste'mol bozoriga ta'sir qiluvchi omillardan biridir. Demografiyaning asosi aholining ijtimoiy-demografik xususiyatlarining iste'molchilar talablari va daromad darajasi orqali iste'molchilarning xulq-atvori bilan o'zaro bog'liqligini hisobga olishdir. V. X. Echenike kitobida "AQSH: demografiya va biznes" (M., 2009) AQShda demografiyaning shakllanishini tasvirlaydi. 1970 yilda Amerika Qo'shma Shtatlar ro'yxatga olish byurosi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlarini kompyuterlashtirishga qaror qildi, bu ma'lumotlar hammaga, ayniqsa xususiy biznesga taqdim etilishi uchun. Demografik ma'lumotga muhtoj bo'lgan ishbilarmonlarga ma'lumot berish g'oyasi Qo'shma Shtatlar aholini ro'yxatga olish byurosida ishlaydigan M.Tyornerga tegishli bo'lib, kompaniyalardan aholining tarkibi va joylashuvi to'g'risida batafsil ma'lumot berishlarini so'rab, kompaniyalardan ko'plab so'rovlarni aniqladi. Aholini ro'yxatga olish byurosi va shtatlar hukumatlari o'rtasidagi kelishuvga binoan, axborot markazlari iste'molchilarga mavjud ma'lumotlarga keng kirishni ta'minlay boshladilar. Federal hukumat markazlarga barcha demografik ma'lumotlarni taqdim etdi. 1983 yilda demografik ma'lumot olish uchun ma'lumot markazlariga murojaat qilgan muassasalar tarkibi quyidagicha: - federal va mahalliy hukumatlar - 2%; ilmiy muassasalar - 1%;

- ommaviy axborot vositalari - 6%;
- kutubxonalar - 2%; - jamoat tashkilotlari - 17%; - ishbilarmonlar - 44%.

Demografik ma'lumotlarga bo'lgan talab yangi xizmat turini - demografik ma'lumotlarni tahlil qilish va qayta ishslashning xususiy markazlarini vujudga keltirdi. Xususiy firmalar aholini ro'yxatga olish byurosidan demografik ma'lumotlarni sotib olishni, uni qayta ishslashni va tadbirkorlarga qulay shaklda sotishni boshladilar. Aholini ro'yxatga olish byurosida davlat tomonidan belgilanmagan shakllarda hujjatlar ba'zan tadbirkorlar uchun zarur bo'lgan


shakllarni tayyorlash va berishni ta'minlamaganligi bunday faoliyatning huquqiy asosi bo'ldi. Kerakli demografik ma'lumotlarni olish uchun xizmat ko'rsatuvchi kompaniya tashkil qilish uchun siz dastlab davlat ro'yxatga olish xizmatidan katta miqdordagi mablag'ni sotib olishingiz kerak. Shunday qilib, 1970 yilda yillik aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari 2 ming kompyuter magnit lentalarini tashkil etdi. Ushbu ma'lumotlardan foydalanish huquqini olish uchun kompaniya barcha ma'lumotlar narxining 50 foizini to'lashi kerak edi, ya'ni. o'sha paytda kamida 70 ming dollar. 1980-yillarda. Kompyuter ma'lumotlarining 12 martadan ko'proq oshishi tufayli kompaniyaning demografik ma'lumot olish uchun qo'shgan hissasi 10 ming dollarga tushdi. Hozirgi vaqtida AQSH aholini ro'yxatga olish byurosining iste'molchilarga xizmat ko'rsatish bo'limi, nashr qilishdan tashqari, magnitlangan rulonlarda va kasetlarda, standart floppi disklarida ma'lumotlarni 12 dollardan sotmoqda. 600 megabaytlik lazer disklari bir donadan 125 dan 250 dollargacha turadi. 1980-yillarning o'rtalarida Beshta eng yirik demografik firmalar (CACI, Clerites, Donelly marketing ma'lumot tizimlari, Milliy rejalashtirish ma'lumotlari korporatsiyasi, Urban dizayn tizimi) AQShda ish olib borgan va har yili o'z xizmatlari uchun 45 million dollargacha pul olgan. demografiya jurnali. Taklif etilayotgan xizmatlarning asosiyalaridan biri bu mamlakat bo'ylab iste'mol tarmoqlarini maqbul taqsimlash uchun ma'lumotlarni taqdim etishdir. Bu do'konlar yoki kasalxonalar, ta'mirlash ustaxonalari yoki sartaroshxonalar, restoran yoki kafelar, banklar yoki valyuta ayriboshlash shoxobchalari tarmog'i bo'lishi mumkin. Iste'mol nuqtalarini mintaqa yoki mamlakatga joylashtirish orqali tadbirkorlar potentsial iste'molchilar haqida iloji boricha ko'proq ma'lumotga ega bo'lishni xohlashadi. Tadbirkorlar tomonidan eng ko'p talab qilinadigan demografik ko'rsatkichlar orasida quyidagilar ajralib turadi: - uy xo'jaliklarining soni va turi;

- aholi, uning yoshi, jinsi, etnik, ma'lumoti va kasbiy tarkibi;
- ajralish holati;
- tug'ilish va o'lim darajasi;
- aholining daromadlari bo'yicha taqsimlanishi;
- migrantsiya harakatchanligi.

3.2 Harbiy demografiya, amaliy demografiya

Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida yangi qit'alarining ochilishi, kashf etilgan materiklar tabiiy boyliklarini o'zlashtirishga rivojlangan mamlakatlarning intilishi, jahon urushlari aholi harakatida muhim o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Ayniqsa, o'tgan XX asrda jahon urushlari oqibatida dunyo aholisining hududiy taqsimotida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, tug'ilish, o'lim, aholining bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rinni tutadi. Shu bois, aholi uning tabiiy harakati bilan bog'liq jarayonlarni tadqiq etish falsafa, iqtisod, sotsiologiya kabi fanlar namoyondalari bilan bir qatorda, birinchi navbatda, geograf olimlar diqqatini ham o'ziga jalb etdi. Bugungi kunda mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanishida inson omili, uning intelektual salohiyati eng birinchi omil sifatida qaralmoqda.

O'z navbatida, demografiya quyidagi fan tarmoqlariga bo'linadi:



Demografik statistika – demografiyaning tarixiy tarmog‘i bo‘lib, aholi takror barpo bo‘lishining tarixiy qonuniyatlarini o‘rganadi.

Statistik demografiyaning vazifalari aholining takror barpo bo‘lishiga oid materiallarni to‘plash va dastlabki qayta ishlash, demografik jarayonlarni statistik tahlil etish va kuzatish metodlarini ishlab chiqishdan iborat.

Matematik demografiya – demografik jarayonlarni modellashtirish va bashoratlash hamda ular o‘rtasidagi aloqadorlikni o‘rganishning matematik usullarini ishlab chiqish va tatbiq etish bilan shug‘ullanadi. Demografik modellarga tug‘ilish, o‘lim, nikoh jadvallarining aniqligi, statsionar va barqaror aholi modeli kabilar kiradi.

Tarixiy demografiya – mamlakatlar va xalqlar tarixidagi demografik jarayonlar holati va dinamikasini o‘rganadi.

Etnik demografiya – aholi takror barpo bo‘lishining etnik xususiyatlarini tadqiq etadi. Xalqlar turmush tarzining etnik xususiyatlari, urf-odatlari, an’analari, oilaviy munosabatlar tarkibi kabilar aholining tug‘ilish darajasi, o‘rtacha umr ko‘rishi va salomatligi holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Iqtisodiy demografiya – aholi takror barpo bo‘lishining iqtisodiy omillarini tadqiq etadi. Iqtisodiy omillar deganda, jamiyat hayotining barcha iqtisodiy shart-sharoitlari hamda ularning tug‘ilish, o‘lim, nikohlanish darajasiga, aholining o‘sish darajasiga ta’siri tushuniladi.

Sotsial demografiya – demografik jarayonlarga aholining subyektiv harakati, ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik ta’sirini o‘rganadi.

«Aholi geografiyasi va demografiya asoslari» nomli kursning predmeti aholining tabiiy o‘sishi va uning taqsimlanishi bilan bog‘liq geografik jarayonlardir.

Harbiy demografiya- demografiyada harbiy omil, biznes va harbiylar miqdorlari bilan iqtisod orasida bog‘liqlikni o‘rganadigan eng muxim ahamiyatga

ega bo‘lgan ilmiy fan. Bu demografiyaning eng qiziqarli qismlaridan biri bo‘lib, uning tadqiqot yo‘nalishi aholining ko‘payishi va boshqa ko‘p narsalar bilan bog‘liq salohiyatli harbiy zaxirani hisoblashni va aholining harbiy migratsiyasini, harbiy yo‘qotishlarni, xizmat paytida yo‘qotishlarni, harbiy harakatlarning ta’sirini o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Harbiy demografiya ko‘plab boshqa fanlar, jumladan tibbiyat, harbiy statistika va ko‘plab harbiy fanlar bilan hamkorlik qiladi. Masalan, harbiy demografiya masalalari jamoatchilikni hozirgi xizmat paytida askarlarning o‘limi to‘g‘risida tashvishlantirayotgan masalalar bilan bog‘liq holda juda dolzarb bo‘lib qolmoqda. Agar kimdir vafot etgan bo‘lsa, demak ... sovuqdan yoki ko‘chaga chiqib, siljib, yiqilib tushgan ... tobut! Ammo endi, bir oz boshqacha sabablarga ko‘ra o‘lim tobora ko‘payib borayotganda, o‘tgan yillar statistikasini qayta ko‘rib chiqish mantiqan to‘g‘ri keladi. Masalan, mukammal sog‘lom yigit armiyaga ketgan, keyin bir necha kun ichida grippdan to‘satdan vafot etgan va bu yerda hech kim aybdor bo‘lmagan holatlar qancha bo‘lgan. Agar biz ushbu savollarni ko‘taradigan bo‘lsak, unda harbiy apparatni qayta qurish haqida o‘ylash mantiqan to‘g‘ri keladi.

Shuningdek, eng muhim masalalardan biri bu harbiy xizmatning qiyinligi tufayli joydan joyga ko‘chib o‘tishga, shaharlarni va hatto mamlakatlarni o‘zgartirishga majbur bo‘lgan harbiylarning ko‘chishi. Ammo ular ko‘pincha oilalari bilan ko‘chib ketishadi, bolalar turli shaharlarda tug‘iladi. Bularning barchasi hisobga olinishi va yozilishi kerak. Bundan tashqari, harbiy migratsiya jarayonlari, shuningdek, madaniyatlar, millatlar va genlar almashinuvi (ba’zan urush davrida zo‘ravonlik). Urush jarayonida mehnatga layoqatli erkaklar soni keskin qisqardi (o‘lim tufayli ham, nogironlik tufayli ham), navbat bilan kelajakda - tug‘ilish kamayadi. Albatta, bu harbiy demografiyani o‘rganishning barcha yo‘nalishlarini; harbiy. yo‘qotishlarimiz, urushlar tufayli ko‘chishlar; urushlarning bizni ko‘payishiga ta’sirini o‘rganish va uning sog‘lig‘i; demografik urushlarning

oqibatlarini qamrab oladi. Harbiy ishlar bo‘limlaridan biri bu harbiy mobilizatsiya va harbiy xizmatdan bo‘shatishni o‘rganishdir, uning miqqosida ijtimoiy harakatchanlik, migratsiya va ko‘payish biz to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir. 1914-18 yillarda taxminan 70 million, 1939-45 yillarda 110 milliondan ortiq mehnatga layoqatli erkak qurolli Kuchlarda safarbarlikdan tashqari, zamonaviy sharoitda urushlar, millionlab erkaklar va ayollar orqada, turli xil mahsulotlarni ishlab chiqarishga jalg qilingan. Shunday qilib, Buyuk Britaniyada 1944 yilda armiyada va ishlab chiqarishda ish bilan band bo‘lgan 22 million mehnatga yaroqli kishining 47 foizi Qurolli Kuchlarda xizmat qilayotgan fuqarolar edi. Jahon urushlari paytida safarbar etilganlarning ulushi nisbatan yuqori bo‘lib, mehnat resurslari tarkibini keskin o‘zgartiradi. Shunday qilib, 1-jahon urushida, urushayotgan davlatlarning aksariyati uchun o‘rtacha 12-15% safarbar qilingan. Urush yillarida safarbar qilinganlarning mutlaq soni: Rossiyada - 15 million, Germaniyada - 13 million, Avstriya-Vengriyada - 9 million, Frantsiyada - 8 million, Buyuk Britaniyada mustamlakalari - taxminan. 8 million, Italiya - taxminan. 6 million, AQSH - taxminan. 4 million Germaniya, Avstriya-Vengriya va Frantsiyadagi 18-45 yoshdagi erkaklar, taxminan. 35%, Buyuk Britaniyada - taxminan. 26% (G.A Batkis ma’lumotlariga ko‘ra). Urushlarda hayotni yo‘qotish bunday aholi sonini kamaytirish kabi oqibatlarga olib keladi hamda uning yosh-jinsiy tuzilishidagi o‘zgarish, notejis o‘sish kabi demografik holatga olib keladi. Urushlarning bizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’siri bilan bir qatorda, uning sog‘lig‘i, tug‘ilish, nikoh, o‘lim, kasallik, shuningdek uning jismoniy o‘zgarishi rivojlanish bizni bilvosita yo‘qotishlarimizni ham tekshiradi.

Amaliy demografiya- aholi va demografik jarayonlar haqidagi ma’lumotlarni shaharlar va qishloqlarni, qurilishni, ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirishda, umuman inson hayoti uchun zarur bo‘lgan vositalarni rejalashtirishda ishlatilishi.

Amaliy tomondan demografik tadqiqotlar doirasiga butun mamlakat yoki uning alohida hududlaridagi aholisi yoki ma'lum aholi guruuhlarining demografik vaziyatini ta'riflash, demografik jarayon va omillarini tahlil etish kiradi. Tug'ilish va o'limning turli avlodlar, turli ijtimoiy guruuhlar va har xil hududlardagi xususiyatlarini tadqiq etishga asoslanib, demografiya bularning kelgusida kutilayotgan o'zgarishlarining demografik bashoratlarni ishlab chiqib, baho beradi. Demografiyaning ilmiy va amaliy ahamiyati shundaki, aholishunoslik butun ishlab chiqarishning ijtimoiy jarayonining asosiy obyekti va subyekti sanaladi. Shu bois demografik tadqiqotlar jamiyat to'g'risidagi ilmiy bilimlar tizimining katta qismini tashkil qiladi, insoniyat demografik taraqqiyotining dialektik – materialistik nuqtai – nazardan talqin etilishi, bu ilmiy dunyoqarashning ajralmas bir bo'lagidir. Demografiyaga, boshqa ijtimoiy fanlar kabi, tadqiqot obyekti va natijalariga sinfiy yondashuv xosdir. Aholining amaldagi va taxminiy soni, tarkibi haqidagi ma'lumotlar rejalashtirish, xususan mehnat resurslari va ishlab chiqarish vositalarini joylashtirish, uy – joy qurilishi, sog'liqni saqlash kabilar uchun dastlabki material sifatida xizmat qiladi.

3.3. Demografik prognoz, iqtisodiy demografiya

Xalq xo'jaligini boshqarish va rejalashtirishning ilmiy darajasini ko'tarishda aholining keljakdagi sonini aniqlash juda muhim hisoblanadi. Shu boisdan aholi statistikasining asosiy vazifalaridan biri ham aholining keyingi yillardagi sonini aniqlab berishdir. Ma'lumki, aholining ko'payish istiqbolini belgilashda xilma-xil usullardan foydalilanadi. Ammo, bu usullar orqali bajarilgan hisobkitoblar barchasi kelgusida shakllanadigan demografik tarkibni aniqlash, hudud miqyosida tabiiy ko'payish va migratsiya sonini ilmiy taxmin qilish, shahar bilan qishloq aholisi nisbatini oldindan bilish, mehnat resurslari, uning hududiy joylashishi hamda demografik tarkibini oldindan tahlil qilish kabi masalalar

yechimini topish mumkin. Bunda har bir hududning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kelgusi 20-30 yil orasini bashorat qila olishdan iboratdir.

Bashoratlar aholining umumiy soni bo‘yicha jinsiy, yosh va boshqa tarkibi, tabiiy hamda mexanik harakatlari (tug‘ilish, o‘lim, tabiiy o‘sish; kelgan va ketgan aholi) va hokazolarda amalga oshiriladi. Ular qisqa muddatli (1-5 yil), o‘rta muddatli (5-25 yil) va uzoq muddatli (25 yildan ortiq) bo‘ladi.

Aholini prognozlash quyidagi usullardan foydalangan holda amalga oshiriladi:

- 1.matematik funksiyalardan foydalanish;
- 2.aholi takror barpo bo‘lishining demografik modeli bo‘yicha;
- 3.tadrijiy o‘zgarishga statistik ta’rif;
- 4.yosh siljитish usuli.

Aholi prognozi uchun demografik siyosatning hozirgi vaziyatini va kelajakdagi holatini taxminiyl bo‘lsada hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Aholi sonini bashoratlash bo‘yicha turli mamlakatlarda urinishlar XVII asr boshlarida boshlangan. Dastavval angliyalik olimlar D.Graunt va V.Pettilar Angliya aholisini bashorat qilish bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. Rossiyada bu sohada XVIII asr oxirlarida rus matematik olimi L.Eyler va mashhur demograf N.German (bu olim birinchi marta Rossiya aholisi sonini bashorat qilgan)lar shug‘ullanishgan. Sobiq sovet statistikasida 1920 yil akademik S.G.Strumilin birinchi marta 20 yil oldinga bashorat qilgan. Oldingi davrlarda amalga oshirilgan bashoratlarda eng muhimi hozirgi holatni o‘tgan davr bilan taqqoslashga asoslangan bo‘lsa, oxirgi yillarda bashoratlash o‘ta nozik usullarda amalga oshirishni zarur qilib qo‘ymoqda. Kelajakni ko‘rish uchun aholiga nafaqat uning umumiy soniga balki barcha alohida-alohida tarkibining elementlariga ta’sir etuvchi omillarni to‘liq va har tomonlama o‘rganishni talab etadi. Aholining kelgusidagi sonini aniqlashda

ko‘proq aholining umumiy soni to‘g‘risida yoki uning har bir yosh guruhi soni bo‘yicha so‘z yuritiladi.

Aytaylik, aholining umumiy sonini bashoratlash zarur. Bunda aholining ma’lum bir vaqtdagi soni olinadi va tug‘ilish, o‘lim hamda tabiiy o‘sish koeffitsiyentlari haqidagi ma’lumotlar keltiriladi. Bu koeffitsiyentlarni kelgusi yillarning ma’lum bir vaqtlarigacha o‘zgarmas bo‘ladi deb taxmin qilaylik ya’ni bir xil rejimdagи takror barpo bo‘lish asosida aholining umumiy sonini ma’lum bir (t) yilga quyidagicha hisoblab aniqlaniladi.

t

$$S_t \square S_0 \square \square 1 \square = K \square \square$$

$$\square C \square$$

Bu yerda K-bir yildagi aholi ko‘payishining umumiy koeffitsiyenti.

S-hisob-kitobda 100 yoki 1000 ga tenglashtirib olingan:

Masalan, 1990 yilda bir shahar aholisining soni 520 ming kishini, tug‘ilish, o‘lim va mexanik ko‘payish koeffitsiyentlari 20, 12 va 2% tashkil qilgan bo‘lsa, aholining soni 5 yildan so‘ng qanchaga teng

$$\square 20 \square 12 \square 2 \square^5$$

5

bo‘ladi? $S_t \square 520 \square \square 1 \square = 1000 \square \square \square 520 \square 1.01 \square \square 546.5$ ming kishi.

Bu hisob-kitobda tug‘ilish, o‘lim va mexanik o‘sish koeffitsiyentlari o‘zgarmas deb olindi, ammo har doim ham shunday bo‘lmadan ular turli omillar ta’sirida o‘zgarib turadi. Shu boisdan bu usuldan faqat qisqa muddatli bashoratlarda foydalilanadi, uzoq muddatlarda haqiqatdan ancha yiroq bo‘lganligi bois qo‘llash ehtimolligi kamdir. Professor E.A.Akramov va N.M.Soatovlar ham aholining perspektiv sonini hisoblashda yuqoridagidek global va yoshning siljitim usulini keltirishadi (1979 y, 191 bet).

$$\begin{array}{cc} \square & \square \\ \square & \square \end{array}$$

$$\begin{array}{c}
 A_2 \square A_1 \square \overline{0} \square 1 \square + \square K_1 K \square \square \\
 \square \quad 2 \quad \square \\
 \\
 \square \quad \square \\
 \square \quad 0.0170 \quad \square \\
 \hline
 A_2 \square 120 \square \overline{0} \square 1 \square 1 \square 1 \square 0.0170 \square \square \\
 \\
 \square \\
 \square \quad 2 \quad \square
 \end{array}$$

Aholining kelajakdagi soni statistik tavsifdan ya’ni o‘rtacha, absolyut o‘sish va aholining o‘rtacha o‘sish va ko‘payish sur’atlari kabilardan foydalangan holda bashoratlanadi. Bularni kelgusida o‘zgarmas deb, taxmin qilamizda, aholining kelajakdagi soni quyidagi formula yordamida topamiz:

$$S_t \square S_0 \square \dot{t} \square t'$$

$$S_t \square S_0 \square T_p;$$

$$\square \quad \square \quad t$$

$$S_t \square S_0 \square \overline{1} \square T_{pr} \square ;$$

$\overline{\square}$ bu yerda \square_t -o‘rtacha absolyut o‘sish;

$\overline{T_p}$ o‘rtacha o‘sish sur’ati;

$\overline{T_{pr}}$ - o‘rtacha ko‘payish sur’ati;

S_0 -dastlabki yil boshidagi aholi soni.

Masalan, O‘zbekiston aholisi 1989 yili 19.9 mln. 1999 yilda 24.4 mln. kishini tashkil etgan, umumiyl mutloq o‘sish 10 yilda 4.5 mln ga teng bo‘lgan. Shundan,

$$-\frac{4.5}{10} \quad \square \square \square 0.45;$$

$$-\frac{\sqrt{24.4}}{T_p \square_{10}} \quad \square \quad \sqrt[10]{1226} \quad \square$$

$$19.9$$

T_{pr} teng bo‘lgan holda 10 yildan keyin 2019 yilda respublika aholisining soni o‘rtacha mutloq ko‘payish bo‘yicha S_{2009} $\square 24,4 \square 10 \square 0,45 \square 28,9 mln.$

o‘rtacha o‘sish sur’ati bo‘yicha $S_{2009} \square 24.4 \square \square_{10} \square \lg S_{2009} \square \lg 24.4 \square 10 \lg$.

$\lg S_{2009} \square$

xuddi shunaqa ma’lumot olamiz. Bundan tashqari aholining kelajakdagi sonini ma’lum vaqtdagi dinamik qatorlarni analitik tenglashtirish usuli orqali ham aniqlash mumkin.

Yoshning siljishi usulida aholining kelajakdagi sonini hisoblash quyidagi formula yordamida amalga oshiriladi.

$$L_x \cdot P_x \square L_{xQ1}$$

Bu yerda L_x -x yoshgacha yashashi mumkin bo‘lgan aholi soni.

P_x - xQ1 yoshgacha yashashi mumkin bo‘lgan ehtimollik,

L_{xQ1} -xQ1 yoshgacha yashashi mumkin bo‘lgan aholi soni.

Bunda, har bir yoshdagi aholi soni (L_x) har bir yosh yashashi mumkin bo‘lgan ehtimollik koeffitsiyenti (P_x) yordamida bir yoshdan(L_x) ikkinchi yoshga L_{xQ1} «siljiteladi». Buni quyidagi jadvalda bajarilgan amallardan ko‘rish mumkin:

20-jadval

Aholinin g joriy yil oxiridagi soni	Kelgusi 1- yil boshida bo‘lishi mumkin bo‘lgan aholi soni	Kelgusi 2- yil boshida bo‘lishi mumkin bo‘lgan aholi soni	Kelgusi 3- yil boshida bo‘lishi mumkin bo‘lgan aholi soni
L ₁₇ 7	L _{18qL₁₇·L₁} 8	L _{19qL₁₈·L₁} 9	L _{20qL₁₉·P₁} 9
L ₁₈ 8	L _{19qL₁₈·L₁} 9	L _{20qL₁₉·P₁} 0	L _{21qL₂₀·P₂} 0
L ₁₉ 9	L _{20qL₁₉·L₁} 0	L _{21qL₂₀·P₂} 1	L _{22qL_{21Q}P₂} 1
L _{17QL_{18QL}} 19	L _{18QL₁₉} QL ₂₀	L _{19QL_{20QL}} 21	L _{20QL_{21QL}} 22

Bu usulni qo‘llash tartibini quyidagi shartli raqamlarda ko‘rib chiqamiz (21-jadval). Shu ma’mumotlarga asoslanib, uch avlodning istiqbolidagi sonini bo‘lajak 1,2 va 3 yillar, ya’ni 1999, 2000 va 2001 yillar uchun aniqlanadi. Yechish uchun jadvalning so‘nggi ustunlarini to‘ldiramiz.

Demak, 1998 yildagi 17 yoshli 3786 kishidan:

- 1999 yilga kelib:

$$j_{18} \square j_{17} \square P_{17} \quad j_{18} \quad \square$$

$$3786 \square 0.99641 \square 3772 \text{ kishi;} \quad \blacksquare$$

2000 yilga kelib:

$$j_{19} \square j_{18} \square P_{18} \quad j_{19} \quad \square$$

$$3772 \square 0.99600 \square 3757 \text{ kishi;} \quad \blacksquare$$

2001 yilga kelib:

sh	yoshdagi aholining 1998 yil boshidagi soni	yosh yashashi mumkin bo‘lgan ehtimollik koeffitsiyenti	1999	2000	2 001
			$j_x \square j_x \square P_x$		
6	3786	0,99641	-	-	-
7	3764	0,99600	3786\square0,99641\square 3772-	-	-
8	3742	0,99562	3764\square0,99600 37493772\square0,996	\square0 \square 3757 -	P
9		0,99526	3742\square0,99562 37263749\square0,995	\square52 \square 3732	-
0		0,99503	-	3726\square0,995\square26 \square 3708	j
1		0,99498	-	-	-

3757\square099562 \square 3740 kishi kolar ekan;

Shu tariqa boshqa yoshdagi aholi soni ham tegishli yillar uchun hisoblangan. Hisoblashda mexanik o‘zgarish koeffitsiyenti e’tiborsiz qoldirilgan.

Yoshni siljитish usulida aholining istiqboldagi sonini hisoblash tartibi

	Mazkur	Har bir	Yil boshidagi yoshlari
			3757\square0,99562

3757\square0,99562

3732\square0,995

3708\square0,995

Bu usuldagи hisob-kitoblarda mexanik o‘zgarish koeffitsiyenti e’tiborsiz qoldirilgan.

Maxsus tadqiqotlar ko‘rsatishicha, farzandlar tug‘ilishini boshqarish, nazorat etish buyicha harakatlar juda qadimdan, turli xalqlarda ma’lum darajada tarqalgan ekan. Xomnlaning oldini olish uslublari, vositacharn hamda abort knish (xomilani sun’iy yul bilan nuk kilish) buyicha ko‘rsatmalar kadimgi donishmandchar Gippokrat, Aristotel (mich.av.P asr) va tibbiyot olimlari Ali-ibn Abbos (X asr), Abu Ali ibn Sino XI asr) asarlarida uchraydi. Lekin bu ko‘rsatmalardan kadimda nikoheiz farzandlar tug‘ilishiniig oldini olish maqsadida ko‘prok foydachanilgan.

Oilada nikohli farzandlar tupishshini chsklashga esa ijtimoiy zarurat bo‘lmagan. Ko‘p bola qurish jamiyat tomonidan qo‘llab-kuvvatlangan. chunki uning ham modsiy, ham ma’naviy ustunlikchari ko‘p edi; undan ham oila, ham jamiyat manfaatdor bo‘lgan. Kapitalistik ishlab chiqarish usulining keng yoyilishi oilaning ko‘p bolaga bo‘lgan talabini anchagina cheklab kuydi, natijada osha muhitida farzandchar tug‘ilishini rejalashtirish ham keng tarkala boshladи. Hozirgi davrda jamiyatda oilani rejalashtirishni asosan niki yunalishda ko‘rsatish mumkin.

Birinchi yunalish. Bunda har bir oila ixtnyoriy ravishda farzandlar tug‘ilishini boshqaradi. YA’ni, oila asosinn tashkil etgan nikoh juftlari (er-xotin) o‘z xoxishlari bilan oilada o‘zlari istagancha farzand kurishga intiladilar va bu farzandlarning tug‘ilish oralikcharini ham o‘zlari belgilaydilar. Bunday holda ular, o‘z istaklaridan ortiqcha farzand kurmas.chik uchun xomiladorlikni oldini oluvchi turli vositalardan foydachanadilar yoki xomilani abort yordamida yuk kiladilar.

Oilani ixtiyoriy usulda rejalashtirish. asosan, iqtisodiy taraqqiy etgan davlatlarda. aholining, ayniqsa ayollarning ma’lumotlilik darjasи yuqori bo‘lgan, **ayollar** ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo‘lgan hollarda. tibbiyot rivojlangan,

xomiladorlikni oldini oluvchi vositalar mavjud va ulardan foydalanish keng targ‘ibot etilgan sharoitlarda tarqalgandir.

Ikkinchl yunalish - oilani davlat tomonidan, siyosiy yo‘l bilan rejalashtirish. Bunda oilani rejalashtirish davlat dastursha kiritiladi va oilada bolachar tug‘ilishi davlat tomonidan nazorat etib boriladi. Shuning uchun ham ba’zi davlatlarda va xachkaro mutasaddi tashkilotlarda oilani rejalashtirish deganda tug‘ilishni cheklashga qaratilgan «tug‘ilishni nazorat etish» davlat dasturi tushuniladi.

«Tug‘ilishni nazorat etish» dasturi XX ayerning ikkinchi yarmidan boshlab Afrika, Osiyo va Latin Amerikasidagi davlatlar tomonidan keng kullanilaboshlandi. Buning asosiy sababi, ushbu davlatlarda XX ayerning o‘rtalarnda aholining juda tez sur’at bilan ko‘payib borishi bo‘ldi.

Masachan 1900-1950 yillarda rivojlanayotgan davlatlar aholisi yiliga o‘rtacha I foizdan ko‘payib kelgan bo‘lsa, 1950-1965 yillarda bu ko‘rsatkich 2-3 foizni tashkil etdi. Afrikadagi ba’zi davlatlarda esa aholi yiliga o‘rtacha 4 foizdan ko‘paya boshladi. Ushbu davlatlarda aholining bunday tez ko‘payishi, tabiiyki, butun sr shari aholiyey mikdorining ham keskin oshib borishiga olib keldi. Chunki «uchinchi dunyo» dsb atalmish Osiyo, Afrika va Latin Amerikasidagi rivojlanayotgan davlatlarda dunyo aholisining uchdan nkki qismi yashaydi.

Rivojlanayotgan davlatlarda XX ayerning o‘rtacharida aholi sonining ana shunday tez sur’at bilan shsishi, asosan, uchta demografik omilga bog‘liq bo‘lgan. Udarsh birinchisi -tug‘ilishning yuqori darajada saqlanib qolishi. 1950-1960 yillarda dunyodagi iqtisodiy rivojlangan Yevropa, Shimoliy Amerika davlatlari va Yaponiyada har 1000 aholiga nisbatan tug‘ilgan bolalar soni 16-22tani tashkil etgan bo‘lsa, rivojlanayotgan davlatlarda 3545, Afrikadaga ba’zi davlatlarda esa 50-60tani tashkil etdi. Tug‘ilishning yuqori bo‘lishi, birinchi navbatda ushbu davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi bilan bog‘liqdir.

Aholi son jixatidan tez ko‘payayotgan davlatlarda ibtidoiy va feodal jamiyatlar munoyeabatlarining saklanib kolishi, hamda mustamlaka tuzumining uzoq hukm surishi, ularning iqtisodiy jihatdan kolok afar regionlar sifatida saklanib kolishiga sabab bo‘ldi. Natijada, sanoat rivojlanmadi. Aholining asosiy qismi xanuzgacha qishloqlarda istiqomat qilib kelmokda. Qishloq turmush tarzi esa, tug‘ilishning yuqori bo‘lishiga olib keluvchi asosiy omillardan hisoblanadi. Undan tashkari, ayollarning ijtimoiy tengenezligi, aholining savodlilik darajasining nihoyatda pastligi, qator musulmon davlatlarida ko‘pbolalikni qo‘llab-quvvatlovchi an’anacharning mavjudligi, **homiladorlikning** oldini oluvchi vositalarning va ular haqidagi tushuichacharning keng tarkalmaganligi kabi omillar ham «uchinchidunyo»da aholi tug‘ilishinnng yuqori bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

Bunday davlatlar aholisining ko‘payishnga olib keluvchi **ikkinchি** demografik omil - aholi o‘limitsing keskin kamayishidir. Statistik ma’lumotlar ko‘rsatishicha, ushbu toifadagi davlatlarda 1950 yili har 1000 kishiga nisbatan ulganlar soni 15-22tani tashkil etgan bo‘lsa, 1965 yilda bu ko‘rsatkich 8-10 tani tashkil etdi. Ayniqsa, bolalar o‘limi kamaydi. Masalan, 1950 yili har 1000ga tukshnan bolalardan Venesuelada-81, Gvatemalada-107, Ekvadorda-110, Misrda-153ta nobud bo‘lgan bo‘lsa, 1965 yilda bu ko‘rsatkichlar, qayd etilgan tartibda 48; 93; 93 va 8 tani tashkil etdi. Boshqacha qilib aytganda. bu davlatlarda (keyingi sahifalarda «rivojlanayotgan» tarzida beriladi) 1950-1965 yillarda aholi o‘limi 1,5-2 marta kamaygan. Aholi o‘limining bunday qisqa davrda keskin kamayishi, asosan, rivojlanayotgan davlatlarga BMT va boshqa xayriya tashkilotlari tomonidan aholiga tibbiy yordam berilishi natijasida, turli epidemiyva yuqumli kasalliklarning kamayib ketishi bilan bog‘liqdir. Rivojlanayotgan davlatlarda aholi sonining ko‘payishiga •oila asosi, yadrosini tashkil etgan er-xotinning qo‘sha qarishi, ya’ni umrlarining oxrilariga kadar birga yashashlari;

- oilada farzandlarning mavjudligi va ularning «sifatli» -ya'ni jamiyat uchun fonda keltiradngan soglom, komil inson etib tarbiyalanishi;

- oltada istiqomat etuvchi barcha oila a'zolarining ma'naviy boyligi va ilmiy yetukpigi;

- insoniyat taraqqiyotiga, jamiyatga, avlod davomiyligiga ijobjiy omil bo'luvchi ma'naviyat va qadriyatlarni oipada saklanishi pa unga amal etilishi;

- jamiyat va davlat, kelajak avlod tomonidan ezozlanishi.

Ushbu ko'rsatkichlarning mujassam bo'lishi oilaning atroflicha taraqqiy etishini takozo etadi. Oila taraqqiyoti asosan uch yunalishda belgilanadi (demografik, iqtisodiy va ijtimoiy).

- Oila siyosatining dastlabki maqsadi oilaning normal demografik taraqqiyotini ta'minlashdir.

- Oila siyosatining navbatdag'i maqsadi oilaning ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashdir.

- Oila siyosatining yana bir muhim vazifasi oilaning iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashdir.

Nazorat savollari:

1. Demografiya qanday fan tarmoqlariga bo'linadi?

2. Harbiy demografiya nima? 3. Amaliy demografiY....

bu?

4. Iqtisodiy demografiya nima?

5. Yoshni siljitish usulida aholining istiqboldagi sonini hisoblash tartibiga izoh bering.

6. Oila taraqqiyoti necha yunalishda belgilanadi?

Adabiyotlar:

1.Abdalova Z.T., Tojiyeva Z.N. Iqtisodiy geografiY. O‘quv qo‘llanma / O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, TMI. – T.: «IQTISODMOLIYA», 2013. -212 bet.

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-Amaliy mashg‘ulot:

Aholi geografiyasi va demografiya fanlarining mazmuni va asosiy bo‘limlari.

Aholi geografiyasi va demografiya fanining xorijda va

O‘zbekistonda rivojlanishi (2 soat).

Ishdan maqsad: Aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanlarining boshqa fanlar bilan aloqasini, Aholi geografiyasi fanining o‘rganish predmeti va vazifalari, Aholini dunyo miqyosida tadqiq etishda geograflarning roli, Fanlar tizimida aholi geografiyasining o‘rnini baholash, Aholi geografiyasi bo‘limlarini solishtirish, Aholi geografiyasi va demografiya asoslarining asosiy yo‘nalishlarini ko‘rsatib beriishdan iborat.

Masalaning qo‘yilishi: Muammoning ko‘lamlari, katta-kichikligi va Aholi geografiyasi va demografiya asoslarining qismlarga bo‘linishi.
Joriy registrlar, karototekalar.

Ishni bajarish uchun vazifa: Geografik fanlar tizimi va vujudga kelgan yangi yo‘nalishlarini aniqlash va Aholi geografiyasi va demografiya asoslarining fanlar tizimidagi o‘rni va qismlarini o‘rganish.

Topshiriqlar:

1. Tanlama va maxsus tadqiqotlar

2. Aholini ro‘yhatga olish turlari va aholini ro‘yxatga olishning asosiy shartlari.....

..

.....

.....

3. Aholi geografiyasi va demografiya fanlarining xorijda rivojlanishi.....

.....

4. Aholi geografiyasi va demografiya fanlarining O‘zbekistonda rivojlanishi

.....
.....
.....
.....
.....
...

2-AMALIY MASHG‘ULOT:

Mavzu. Demografiya va geodemografiY. Aholishunoslikning nazariy asoslari, demografik siyosat va demografik konsepsiyalar, demografik qonuniyatlar, demografik jarayonlarning ijtimoiyiqtisodiy hayotga ta’siri va oqibatlari (4 soat).

Ishdan maqsad: Aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanlarida geodemografiya va demografiyaning ma’zmun mohiyatini ochib berish va boshqa fanlar bilan aloqasini yoritish. Aholishunoslikning nazariy asoslarida xorij olimlarining o’rni va roli. Mal’tus, Smit nazariyalarini, jahonga mashhur demografik siyosat va demografik konsepsiyalar, demografik qonuniyatlarni ko’rsatib berishdan iborat.

Masalaning qo‘yilishi: Aholi geografiyasi va demografiya asoslaridagi muhim jarayonlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta’siri va oqibatlari, ko‘lamlari, katta-kichikligi.

Ishni bajarish uchun vazifa: Demografiya va geodemografiY. Aholishunoslikning nazariy asoslari o‘rganish. O‘zbekiston Respublikasi demografik rivojlanish konsepsiyasining bo‘limlarini ishlab chiqish.

Nazorat savollari

1. Dunyo mamlakatlarida oilani rejalashtirish va uy xo‘jaligi.
2. Oilani rejalashtirishda 10 ta taklif va tavsiyalar bering.
3. Oilani rejalashtirish xalqaro federatsiyalar va xalqaro tashkilotlar faoliyatları.
4. Farzandli oilalarga beriladigan yordam choralari qanday guruhlarga ajratiladi?
5. O‘zbekistonda oilalarni ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida nafaqalarning qanday turlari beriladi?
6. Demografik siyosatning mohiyatini tushuntirib bering.
7. Demografik siyosatni o‘tkazishning qanday uslublarini bilasiz?
8. Tug‘ilish sohasida demografik siyosatni o‘tkazishdan maqsad nima?
9. Farzandli oilalarga beriladigan yordam choralari qanday guruhlarga ajratiladi?
- 10.O‘zbekistonda oilalarni ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida nafaqalarning qanday turlari beriladi?

3-AMALIY MASHG‘ULOT

Mavzu: Ishlab chiqarishning demografik jihatlari. Demografiya asoslari, siyosiy demografiya, harbiy demografiya, amaliy demografiya, mintaqaviy demografiya, demografik prognoz, iqtisodiy demografiY.

(4 soat). .

Ishdan maqsad: Ishlab chiqarishning demografik jihatlarida ijtimoiy-demografik xususiyatlarining iste’molchilar talablari va daromad darajasi orqali iste’molchilarining xulq-atvori bilan o‘zaro bog‘liqligini hisobga olish, Mintaqaviy demografiya va xarbiy demografiya kabi tarmoqlarning roli va ahamiyatini, amaliy

demografiyaning rolini yoritish asoslarining asosiy yo‘nalishlarini ko‘rsatib beriishdan iborat.

Masalaning qo‘yilishi: Demografiya asoslari, siyosiy demografiya, harbiy demografiya, amaliy demografiya, mintaqaviy demografiya, demografik prognoz, iqtisodiy demografiY.

Ishni bajarish uchun vazifa: Geografik fanlar tizimida amaliy demografik tadqiqotlar yo‘nalishini jadal rivojlantirish, yangi yo‘nalishlarini aniqlash.

Nazorat savollari:

1. Tanlama va maxsus tadqiqotlar
2. Aholi qaysi fanlarning tadqiqot obyekti hisoblanadi klassterda ifodalang.
3. Fanni o‘rganishda qanday usullardan foydalilanadi?
4. Geodemografiya fani tarkibiy jihatdan qanday tarmoqlarga ajraladi ikkita tarmogini olib venna diogrammasida ifodalang.
5. Aholi qaysi fanlarning tadqiqot obyekti hisoblanadi klassterda ifodalang.
6. Geodemografiya fani tarkibiy jihatdan qanday tarmoqlarga ajraladi ikkita tarmogini olib venna diogrammasida ifodalang.
7. Aholi harakatining istiqboldagi ko‘rsatkichlarini baholash uchun qanday usullardan foydalilanadi?
8. Demografik prognozning qanday shakllari mavjud?
9. Prognozning tasdiqlanishi deganda nimani tushunasiz?
10. Demografik prognozlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini tushuntirib bering.

V. GLOSSARY

Aholi deganda – malum hududda yashaydigan kishilar guruhi tushiniladi. Shu boisdan ilmiy – geografik tadqiqotlarda aholi va aholi manzilgohlarini atrof muhit va xo‘jalik bilan bevosita bog`liq holda tadqiq etishadi .

Antrapalogiya (grek tilidan – antropos – “inson”) inson organizmining evolyutsiyasi va undagi jismoniy o`zgarishlarning kelib chiqish qonuniyatları, shuningdek irqlarning vujudga kelishi va geografik tarqalishini o`rganib, u aholi geografiyasi bilan birgalikda aholi mehnat faoliyati turmush sharoiti va madaniyatdagi hududiy xususiyatlarni o‘rganadi.

Aqliy talofat – yuqori malakali kadrlarning xalqaro migratsiyasi.

Aglomeratsiya – aholi punktlarning bir-birlariga qo`shilib ketib, ulkan shahar, yagona iqtisodiy hudud hosil qilishi . Aglomeratsiyalarda aholiAglomeratsiyalarda aholi zich o‘rnashgan, xilma-xil ishlab chiqarish tarmoqlari, xususan sanoat korxonalari, ilmiy va o‘quv muassasalari to‘plangan bo‘ladi

Aholi geografiyasi – aholining tarkibi, dinamikasi va joylashuvidanagi regional tafovutlarni va bu tafovutlarni vujudga keltiradigan omillarni, aholi va

aholi manzilgohlarining hududiy tizimlarini hamda ularning rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganadi.

Doimiy migratsiya- aholining uzoq muddatga (bir yildan oshiq) bir joydan ikkinchi bir joyga ko‘chib yana qaytishidir.

Demografiya – aholi jadvali, ro‘yxati kabi ma’nolarni anglatib, aholi yoshi, jinsi, tabiiy va mexanik harakatini o‘rganuvchi fandir.

Demografik jarayonlar – biror rayon, hududdagi aholining tug‘ilishi, o‘lim ko‘rsatkichlari, dinamikasi, migrantsion harakati, yosh jins tarkibining ma’lum muddatdagi holatidir.

Depopulyatsiya – ma’lum hududda kompleks sabablarga ko‘ra aholining kamayishi.

Demografiya tarixi – demografiya asoslari ning alohida fan sifatida rivojlanish shart – sharoitlari va tarixini o‘rganadi.

Demografik statistika – aholi soni, tarkibi, joylashuvi, takror barpo bo‘lish va demografik jarayonlar haqida statistik uslub yordamida raqamlar ma’lumotlar to‘playdi.

Jins – jinsiy ko‘payishni ta’minlaydigan, organizmning genetik, fiziologik va morfologik belgilar majmuidir

Jinsiy tarkib – aholining erkaklar va ayollarga bo‘linishidir.

Immigratsiya- kishilarning uzoq muddatga doimiy yoki vaqtincha yashashi uchun biron bir mamlakatga boshqa davlatlardan ko‘chib kelishi.

Imigratsiyada qatnashgan aholi “immigrantlar” deyiladi.

Katoliklik – xristianlikning yagona markazli yo‘nalishi bo‘lib, uni Rim papasi boshqaradi. Biroq, katolik dini keng tarqalgan davlat Braziliya hisoblanadi.

Iqtisodiy demografiya asoslari- Aholi takror barpo bo‘lishining iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liq holda o‘rganadi; demografik jarayonlar hususiyatlarini iqtisodiy strukturaga muvofiq va muvozanatga ta’sirini taxlil etadi.

Mavsumiy migratsiya- aholining ma'lum bir vaqtga (mavsumga) bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chib yana qaytishidir.

Migratsion o'sish – ko'chib keluvchilar hisobiga aholi sonining ortishi.

Mokisimon (mayatniksimon) migratsiya – biror hududda yashab, ikkinchi hududda mehnat resurslarining ishlashi.

Monogamiya yoki monogam nikoh- bu bir erkakning bir ayol bilan nikohidir, poligamiya yoki poligam nikoh- bu bir erkakning bir necha ayol bilan nikohidir (ko'pxotinlilik), yoki bir ayolning bir necha erkak bilan nikohidir (ko'perlilik).

Nikoh - bu erkak va ayol o'rtasidagi munosabatlarning, ularning birbiriga va o'z bolalariga nisbatan huquqlari va majburiyatlarining jamiyat tom **Nikoh yoshi** – bu qonun yoki odat nikohga kirishga ruxsat beradigan eng kichik yoshidir.

Nikoh strukturasi –bu aholining nikoh holatlari (statuslari) bo'yicha taqsimlanishidir. Nikoh strukturasi aholini ro'yhatga olish yoki mikro ro'yhatga olish ma'lumotlari bo'yicha belgilanadi.

Oila – insonlarning tabiiy, biologik, nikoh-qon qarindoshlik, iqtisodiy, huquqiy, ia'naviy munosabatlarda asoslangan, turmush birligi va o'zaro javobgarlik orqali bog'langan ijtimoiy guruhidir.

onidan qayd etiladigan va boshqariladigan shaklidir.

Poliandriya yoki ko'perlilik nikoh shakli juda kam uchraydi; Hindiston va Tibetning ba'zi xalqlaridagina bor, u ham bo'lsa bitta ayolning bir nechta aka-ukalar bilan nikohda bo'lishi shaklidan iborat.

Progressiv- yosh tarkibida aholi umumiyligi miqdorida bolalar (0-14 yoshdagi) salmog'i qariyalarga (65 yosh va undan yuqori) qaraganda yuqori bo'lgan hududlarda kuzatilib ularning aholisi muntazam ko'payib boradi. Bu yosh tarkibiga Afrika va Osiyo davlatlarini kirlitsa bo'ladi. Dunyo bo'yicha 15 yoshdan kichiklar jami aholining 30 foizini (2003 yil) tashkil qilsa, Afrikada 42 foizni, Osiyoda 30

foiz, Yevropada 17 foizga teng. Bizning respublikamiz aholisi yosh tarkibida aynan shu yoshdagilar dunyo ko‘rsatkichidan baland (38 foiz) ligi tilan tafsiflanadi.

Protestantlik – bir qancha oqimlarga ega, ular: kalvinizm, lyuteranlik, baptizm, anglikanlik va boshqalar.

Provoslavlik – slavyan guruhidagi xalqlarda keng tarqalgan. Biroq, slavyan guruhidagi xalqlarning barchasi ham provoslav emas. Masalan, polyaklar katoliklar, yoki roman guruhidagi xalqlardan ruminlar provoslavlardir.

Regressiv- yosh tarkibida aholi umumiy sonida qariyalar salmog‘i bolalarga qaraganda yuqori bo‘ladi. Bunday holda esa aholi soni asta-sekin kamayib boradi va “depopulyatsiya” holati yuz beradi. Aholi “qarib” borishi kuzatiladi.

Reemigratsiya- kishilarning uzoq muddatga doimiy yoki vaqtincha yashash uchun o‘z vatnidan boshqa mamlakatga ko‘chib ketib, muayyan muddatdan so‘ng yana kaytib ko‘chib kelishidir. Reemigratsiyada qatnashgan kishilar “reemigrantlar” deyildi.

Statsionar- yosh tarkibida aholi umumiy miqdorida qariyalar salmog‘i yoshlar bilan tengdir. Statsionar yosh tarkibida aholi soni bir xil miqdorda turadi. Aholining tez kamayishi yoki kamayishi kuzatilmaydi.

Tebranma migratsiya- aholining bir joydan ikkinchi bir joyga har kuni yoki har haftada borib qaytishi.

Urbanizatsiya – (lotincha urbanus – shahar) – shaharlashish, ya’ni shaharlarning o‘sishi va ko‘payishi. Bu jarayon fan-texnika inqilobi davrida keskin kuchayib, shahar aholisining ko‘payishiga, shahar turmush tarzining keng tarqalishiga sabab bo‘ladi.

Ekzogen omillar- odamlarda tashqi ta’sir bilan bog‘liq paydo bo‘ladigan o‘limlar bo‘lib bu omillar oqibatid aholining turli yoshdagagi kishilari turli vaqtida turli joyda vafot etadilar.

Emigratsiya- kishilarning doimiy yoki vaqtincha yashash uchun o‘z vatanidan boshqa mamlakatlarga ko‘chib ketishi. Emigratsiyada qatnashgan aholi emigrantlar deb ataladi.

Endogen omillar- organizning ichki rivojlanishi, uning shakllanishi va qarishi, insonning yashash faoliyati qobiliyatining pasayishiga sabab bo‘ladigan omillardir.

Hududiy demografiya asoslari – ma’lum hudud, mamlakat, davlatning hududiy bo‘linmasidagi aholi soni, yosh – jinsiy, oilaviy tarkibi demografik jarayonlarining hususiyatlarini o‘rganadi.

Xristianlik – dunyo bo‘yicha e’tiqod qiluvchilar soni eng ko‘pchilikni tashkil qiluvchi din. Yangi eraning I-asrida paydo bo‘lib, Yevropada keng tarqalgan. Uning asosiy yo‘nalishlari: katoliklik, protestantlik va provaslavlik.

Yosh – inson tug‘ilganidan hayotining ma’lum nuqtasigacha bo‘lgan davr.

Yosh akkumulyatsiyasi – ba’zi yosh guruhlaridagi aholi sonini o‘zidan oldingi yosh guruhidagi aholi sonidan oshib ketishi.

VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muasasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ2909-sonli Qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-sonli Farmoni.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr “Ilmfanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.
17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.
19. O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi. - 2002. № 4-5. - 68-modda.
20. O‘zbekiston Respublikasining “Ekologik nazorat to‘g‘risida»gi qonuni// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013 y., 52сон, 688modda.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30-sentabrdagi “2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5863-sonli Farmoni.

SH. Maxsus adabiyotlar

1. Abdalova Z.T., Tojiyeva Z.N. Iqtisodiy geografiY. O‘quv qo‘llanma / O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, TMI. – T.: «IQTISODMOLIYA», 2013. -212 bet.
2. Abduraxmanov Q.X., va boshqalar. DemografiY. Darslik. - T.: «Fan va texnologiya», 2014. - 368 b.
3. Ayrapetov A.M. Tablitsi ischisleniya i srednegodovix tempov rosta, prirosta i snijeniya (2-ye dopolnennoye izdaniye). – M.: Statistika, 1967. – 158 s.
4. Asanov G, Nabixanov M, Safarov I. O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo‘g‘rofiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1994. – 209 b.
5. Anoxin A.A., Jitin D.V. Geografiya naseleniya s osnovami demografii: Uchebnoye posobiye. – SPb. Izd-vo SPbGU, 2013. – 307 s.
6. Alisov N. V., Xoreye B. S. Ekonomicheskaya i sotsialnaya geografiya mira {obshiy obzor). - M., 2001.
7. Axmedov E. O‘zbekiston shaharlari mustaqillik yillarda. – T.: Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyat nashriyoti, 2002.
8. Axmedov E., Saydaminova Z. O‘zbekiston Respublikasi. Qisqacha ma’lumotnoma. – T.: “O‘zbekiston”, 2006.
9. Bo‘riyeva M.R., Tojiyeva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va Demografiya asoslari. - Toshkent., “Tafakkur», 2011.-160 bet.
10. Bo‘riyeva M.R., Egamova D.N. Dunyo aholisi: Rivojlanish jarayonlari (o‘quv qo‘llanma). – T.: Fan, 2008. – 156 b.

11. Bo‘riyeva M. R. O‘zbekistonda oila demografiyasi. – T., Universitet, 1997. 157 b.
12. Boyarskiy A.Y. Kurs demografii: Ucheb. Posobiye. – M.: Finansi i statistika, 1985. – 391 s., il.
13. Borisov V. A. DemografiY. – M.:Izdatelskiy dom NOTABENE, 1999, 2001. – 272 s.
14. Butov V.I. Demografiya: Uchebnoye posobiye. Pod.red.V.G.Ignatova. Vtoroye izd., pererab i dop. – M.:IKS. Mart; Rostov n/d: Izdatelskiy sentr “Mart”, 2005. – 576 s.
15. Klupt M.A. Demografiya regionov Zemli. – SPb.: Piter, 2008. – 347 s.: il.
16. Kovalev S.A. Selskoye rasseleniye (Geograficheskoye issledovaniye). – M.: MGU, 1963. – 372 s.
17. Kopilov V.A. Geografiya naseleniY. Uchebnoye posobiye.– M.: 1999. – 124 s.
18. Medkov V.M. DemografiY. - M., 2004.
19. Osnovi teorii narodonaseleniya: - Ucheb.posobiye dlya ekon. Spets. Vuzov/ D.I.Valentey, V.I.Kozlov, N.V.Pankratyeva i dr.; Pod red. D.I.ValenteY. - 3-ye izd.,pererab.i dop. – M.: Vissn. shk., 1986. – 376 s.
20. Persik YE. N. Geografiya gorodov (geourbanistika): Uchebnoye posobiye dlya geogr. spets. vuzov. – Vissn. shk., 1991. – 319 s.
21. Tojiyeva Z.N. Iqtisodiy va demografik statistika. – T., 2002. - 160 b.
22. Tojiyeva Z.N. O‘zbekiston aholisi: o‘sishi va joylanishi (Monografiya). – T.: «Fan va texnologiya», 2010. – 276 b.
23. Qayumov A.A., Yakubov O‘.SH., Abdullayev A.G. Aholi geografiyasi va Demografiya asoslari. – T.: “Fan va texnologiya”, 2011. – 160 b.

IV. Internet saytlar

1. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

2. . <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
3. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiyemetodik markazi
4. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portalı ZiyonET
5. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi